



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIK  
VAZIRLIGI**

**SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI**

**AGRONOMIYA FAKULTETI**

**O'SIMLIKSHUNOSLIK KAFEDRASI**

**5620200 – Agronomiya (Dehqonchilik mahsulotlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi  
bitiruvchi kurs talabasi**

***NARZIYEV LOCHIN TO'YCHIYEVICHNING***

***BITIRUV MALAKAVIY ISHI***

**MAVZU: «Ertagi kartoshka yetishtirishda tuganaklar o'stirib olishning  
ahamiyati»**

**Ilmiy rahbar, q.-x.f.n., dosent**

**D.S.Normurodov**

Ish ko'rib chiqildi  
va himoyaga qo'yildi  
( - yig'ilish)  
kafedra mudiri, professor  
\_\_\_\_\_ N.X.Xalilov  
«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2014 yil

Agronomiya fakulteti  
dekani, dosent  
\_\_\_\_\_ D.S.Normurodov  
«\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ 2014 yil

**SAMARQAND – 2014**

# Mundarija

|                                                                                                                                                                                    |  |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--|
| <b>KIRISH .....</b>                                                                                                                                                                |  |
| <b>1.Adabiyotlar sharhi.....</b>                                                                                                                                                   |  |
| 1.1.Kartoshkaning ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va botanik ta'rifi.....                                                                                                    |  |
| 1.2.Kartoshkaning biologik xususiyati.....                                                                                                                                         |  |
| 1.3. Ertagi kartoshka usishi, rivojlanishi, xosildorligiga tuganaklar o'stirib olishning ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari va ularning tahlili..... |  |
| 2.O'zbekistonda rayonlashtirilgan va keng tarqalgan kartoshka navlari.....                                                                                                         |  |
| 3.Ertagi kartoshka yetishtirish texnologiyasi.....                                                                                                                                 |  |
| 4. Ertagi kartoshka yetishtirish texnologik xaritasi.....                                                                                                                          |  |
| 5. I.A.Karimovning mamlakatni modernizasiya qilish, kuchli fuqarolik jamiyati barpo etishning asosiy yo'nalishlari va ustuvor vazifalari.....                                      |  |
| 6.Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari.....                                                                   |  |
| 7.Hayot faoliyati xavfsizligi .....                                                                                                                                                |  |
| Xulosa va takliflar.....                                                                                                                                                           |  |
| Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....                                                                                                                                            |  |
| Ilovalar.....                                                                                                                                                                      |  |

## KIRISH

Kartoshka oziq-ovqat, yem- xashak va texnik ahamiyatga ega yuo'lgan universal ekindir. U dunyo dehqonchiligida maydoni bo'yicha sholi, makkajo'xoridan keyingi o'rinda turadi. Shuning uchun ko'pchilik Yevropa mamlakatlarida "Ikkinchi non" deb yuritiladi. O'zbekiston kartoshka asosan oziq-ovqat sifatida is'temol qilish uchun ishlatiladi . juda kam miqdordagi sifati past qismi esa chorva ozig'iga ajratiladi. Kartoshkachilikni rivojlantirish va uni ilg'or sohaga aylantirish bevosita yuqori navli moslanuvchan, kasallik va noqulay sharoitlarga chidamli mashina mexanizmlari yordamida ekish yetishtirish hamda yig'ishga mos va yaxshi saqlanuvchan navlarni tanlash va yaratishga bog'liq. Mustaqillik yillarida mamlakatimiz xukumati tomonidan respublikada kartoshka ishlab chiqarishni ko'paytirishga alohida e'tibor yuyerilmoqda. Varirlar Maxkamasi tomonidan 1996 yil 30 avgustda "Kartoshkachilikda bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va Respublikada kartoshka yetishtirishni ko'paytirish chora tadbirlari to'g'risida" gi qaror qabul qilindi va bunga asosan kartoshka ekini maydonlari kengaytiridlmoqda va uning hosildorligini oshirishning barcha tadbirlari amalga oshirilmoqda. Bizning respublikamiz aholisi kartoshkaga bo'lgan talabini qondirish, urug'lik fondini yaratish uchun ayni kartoshka mahsulotlarni, ikki martaga ko'paytirish zarur bo'ladi.

Kartoshkachilik dunyo dehqonchiligida, shu jumladan O'zbekiston qishloq xo'jaligida asosiy rivojlanayotgan sohalardan biri hisoblanadi. Keyingi yillarda respublikamizda "O'zkartoshka" firmasi tashkil etilib, boshqa davlatlar firma, mutaxassislari bilan xamkorlik, tajriba almashish, turli urug', texnika va kimyoviy vositalar hamda o'stirish texnologiyalarini keltirib sinash, takomillashtirish va bir qancha ijobiy ishlar amalga oshiriladi. Natijada hozirgi kelib kartoshka maydoni 50-55 ming gektarga yetkazilib, 0,7-0,8 mln. tonna yalpi hosil olinmoqda. Bunga albatta respublika sharoitida bajarilgan ilmiy- tadqiqot natijalari, ilg'orlar tajribasi va dunyoga mashhur texnologiya, fan texnika yutuqlarini joriy etish orqali erishilmoqda. Kartoshkachilikni rivojlantirishning asosiy yo'llaridan biri

hosildorlikni oshirish, zamonaviy urug'chilikni tashkil etish va rentabellikni oshirish hisoblanadi. Respublikamiz qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lgan kartoshkachilikni rivojlantirish aholini oziq-ovqatga bo'lgan talabini qondirishda alohida ahamiyatga ega.

BMIning vazifalari - kartoshkaning morfologik, biologik xususiyatlari, navlar, tuganaklar o'stirib olishni hosildorlikka ta'siri va uni oshirish bo'yicha tahlil qilish hamda xulosalar qilib, ishlab chiqarishga tavsiyalar berish.

Mazkur bitiruv ishi referat talablari asosida bajarildi. Uni bajarishda yangi adabiyotlar, internet ma'lumotlapridan foydalanildi. BMIni bajarishda Axborot resurs markazi va yaqindan yordamlashga O'simlikshunoslik kafedrasining professor-o'qituvchilariga o'zinnin samimiy minnatdorchiligimni bildiraman.

## **1. ADABIYOTLAR SHARHI**

### **1.1.Kartoshkaning ahamiyati, kelib chiqishi, tarqalishi va botanik ta'rifi.**

Kartoshka – oziq ovqat, yem-xashak va texnik ahamiyatga ega universal ekindir. U dunyo dehqonchiligida maydoni bo'yicha bug'doy, sholi, makkajo'xoridan keyingi o'rinda, ahamiyati jihatdan esa ikkinchi o'rinda turadi. Shuning uchun haqli ravishda ikkinchi non deb yuritiladi. Tuganak biokimyoviy tarkibi 75 % suv va 25 % quruq moddadan iborat. Quruq moddaning 70-80 % i kraxmal bo'lib, tuganakda uning miqdori 13-20 %, oqsil-2-3 %, kletchatka-1 %, moy-0,2-0,3 %, shakar-1 %, kul 0,8-1,0 % ni tashkil etadi (Ostonaqulov T.E., 1997).

Bundan tashqari u vitaminlar (C, B<sub>1</sub>-B<sub>3</sub>, PP, K va karotinoidlar) hamda mineral tuzlar, elementlar manbaidir. Ayniqsa, yosh pishmagan tuganaklar S vitamini yoki askorbin kislotasini 40 mg % gacha saqlaydi. Tuganaklar pishganda va saqlash mobaynida C vitaminining miqdori kamayib boradi.

Kartoshka tuganagi-qayta ishlaydigan spirt, kraxmal, dekstrin, glyukoza, kauchuk va boshqa sanoat tarmoqlari uchun xom ashyo hisoblanadi. Tarkibida 17,6 % kraxmali bo'lgan bir tonna kartoshka tuganagidan 112 litr spirt yoki 170 kg kraxmal va boshqa ko'plab mahsulotlar olish mumkin. Kartoshkadan olinadigan spirt tibbiyotda, kraxmal esa qog'oz, to'qimachilik va oziq-ovqat sanoatlarida almashinmaydigan, tengi yo'q mahsulotdir (Pisarev B.A., 1986).

Kartoshka ekinining agrotexnik va agroiqtisodiy ahamiyati ham katta. Chunki, chopiq talab ekin bo'lgani uchun u yetishtirilgan dala tuprog'i yumshoq va begona o'tlardan tozalanib, ko'plab boshqoqli va dukkakli don ekinlari uchun yaxshi o'tmishdosh hisoblanadi. Ko'pchilik mamlakatlarda shudgorni band qiluvchi ekin sifatida o'stiriladi.

O'zbekistonda kartoshka asosan oziq-ovqat maqsadida ishlatiladi. Faqat, notovar mayda, sifatsiz tuganaklar hosili mollarga beriladi.

Kelib chiqishi va tarqalishi. Kartoshkaning vatani Janubiy Amerika (Peru, Chili, Chiloe oroli va boshqalar) hisoblanadi. Chunki, And tog'lari va Tinch okeani sohillarida bu ekinning hozir ham ko'plab yovvoyi, yarim yovvoyi turlari o'sadi. Akademik S.M.Bukasov, S.V.Yuzepchuklarning 1925-1932 yillardagi Markaziy va Janubiy Amerikaga safarlari tufayli kartoshkaning boy genofondi to'plandi.

Professor L.Ye.Gorbatenkoning ta'kidlashicha, hozirgi vaqtda kartoshkaning 211 ta turi ma'lum. Amerikadan (Chilidan) kartoshka 16 asr o'rtalarida Ispaniyaga keltirilib, undan Yevropaning boshqa mamla-katlari Italiya, Fransiya, Gollandiya kabilarga tarqalgan. Rossiyaga kartoshkaning keltirilishi Pyotr I nomi bilan bog'liq bo'lib, 17 asr oxirlarida Gollandiyadan Kamchatka, Alyaskaga olib kelingan. Biroq u 19 asr o'rtalarida bizda keng tarqaldi.

O'zbekistonda kartoshka 140 yildan beri ekilmoqda. Hozir kartoshka dunyoning 138 ta mamlakatida 20-22 mln gektarga ekilib, 320-335 mln. tonna yalpi hosil yetishtiriladi. O'rtacha hosildorligi dunyo bo'yicha 15-17 t/ga tashkil etadi.

Botanik ta'rifi. Kartoshka tuganakmevali ekinlar guruhiga oid o'z tabiatiga ko'ra ko'p yillik o'simlik, madaniy holda esa bir yillik qilib o'stiriladi. Chunki, madaniy ekin sifatida uning barcha hayot davri (unib chiqimdan pishib yetilgan tuganaklar shakllanishgacha) bir yilda tugallanadi.

Kartoshka odatda vegetativ yo'l bilan (tuganagi, o'simtasi, qalamchalari orqali) ko'paytiriladi. Seleksiya amaliyotida yangi navlar yaratish uchun botanik urug'idan foydalaniladi (D.T.Abdukarimov, 1970, T.E.Ostonaqulovlar, 1991, 1997)

Kartoshka tomatdoshlar oilasiga (Solanaceae) mansub bo'lib, Solanum avlodini tashkil etadi. Bu avlod 200 dan ziyod yovvoyi, yarim yovvoyi va madaniy turlarni o'z ichiga olib, shundan faqat bitta Solanum tuberosum L. madaniy holda keng ekiladi. Boshqa ko'plab turlar qimmatbaho biologik, xo'jalik belgi xususiyatlarga ega bo'lib, seleksiya ishida boshlang'ich material sifatida ko'p

foydalaniladi. Shular jumlasiga *S. andigenum*, *S. demissum*, *S. stoloniferum*, *S. leptostigma*, *S. byacense*, *S. phureja* kabilar kiradi.

Kartoshka o'simligi - palak bo'lib, poya va bargdan iborat. Har bir tup 3-5 ta va ziyod poya hosil qiladi. Poya soni nav belgi bo'lib, urug'lik materialning vazniga va undagi nishlagan kurtaklar soniga bog'liq. Kartoshka poyasi tik va yotib o'suvchan, shoxlanuvchan bo'ladi. Poya ko'ndalang kesimi yumaloq, ko'pincha 3-4 qirrali bo'ladi. Botanik urug'dan o'stirilgan o'simlik bir poya hosil qiladi. Kartoshka navlari poyasining soni, qirraliligi, balandligi, shoxlanishi va ranglanganligi bilan xarakterlanadi. Poya soni bo'yicha navlar ko'p va kam poyali, uch va ko'p qirrali, shoxlanmaydigan, kuchsiz, o'rtacha va kuchli shoxlanuvchan poyali bo'ladi.

Tuganak yoki urug'dan ko'karib chiqqan o'simlik bargi oddiy, chetlari butun bo'ladi. O'simlikning keyingi o'sishi natijasida chuqur kesilgan toq patsimon barglar hosil bo'ladi. U barg bandi, o'qi, unda joylashgan oxirgi (uchki) bo'lak, 3-7 juft yon bo'laklar va ular orasidagi oraliq bo'lakchalardan tashkil topgan. Bargning oxirgi va yon bo'laklari yirikligi, shakli, yon bo'laklar soni, ularning joylashishi, ranglanganligi kabilar muhim nav belgi hisoblanadi. Barg bo'laklari yirik, mayda va o'rta yiriklikda, shakli esa oval, uzunchoq, tuxumsimon va turli oraliq ko'rinishlarda bo'ladi. Oxirgi (uchki) barg bo'lagi asosining shakli yuraksimon, ponasimon va oraliq ko'rinishda bo'lishi ham nav belgidir.

## **1.2. Kartoshkaning biologik xususiyatlari**

Kartoshka yumshoq iqlim o'simligi. Lekin o'zining plastikligi (moslanuvchanligi) tufayli turli tuproq-iqlim sharoitlarida o'stirilib, muttasil mo'l va sifatli hosil olinmoqda.

Kartoshka o'simligi o'sish va rivojlanishida unib chiqish, shonalash, gullash, palak sarg'ayish va pishish fazalarini o'taydi. O'simlikning butun shaxsiy rivojlanish jarayonini shartli ravishda 3 davrga bo'lish mumkin:

1. Unib chiqishdan gullashgacha bo'lgan davr. Bunda asosan palak jadal o'sadi, shakllanadi, tuganak hosil bo'lish esa juda kam bo'lib boshlanadi.
2. Gullashdan palak sarg'ayishgacha bo'lgan davr. Bu tuganaklarning eng jadal o'sish va shakllanishi bilan xarakterlanadi.
3. Palak sarg'ayishdan uning tabiiy qurishi tuganak pishishigacha bo'lgan davr. Bu davrda tuganak o'sishi davom etadi, lekin ikkinchi davrga nisbatan sust boradi.

Davrlarning davomiyligi navlarning o'suv davriga bog'liq bo'lib, ertapishar navlarda unib chiqishdan gullashgacha 25-35 kun, o'rtapishar va kechpishar navlarda esa 40-45 kun o'tadi. Ikkinchi gullashdan-palak sarg'ayishgacha bo'lgan davr tezpishar-o'rtatezpishar navlarda 25-35 kun, o'rtapishar va o'rtakechpishar navlarda esa 43-50 kun davom etadi. Uchinchi davr (palak sarg'ayishdan-tuganak pishishgacha, tezpishar navlarda 20-25 kun, kechpishar navlarda esa 30-35 kunda o'tadi.

Eng muhimi ikkinchi davr hisoblanib, 65-75 % tuganak hosili shakllanadi. Shuning uchun bu davrda barcha tadbirlar o'simlik o'sish va rivojlanishi, tuganak shakllanishi uchun qulay sharoit yaratishga qaratilmog'i shart. Shundagina har sutkada gektarda 2,5-3 tonna hosil to'planishi mumkin. Keyingi davrlarda bu ko'rsatkich gektariga 0,3-1,0 tonnani tashkil etib, keskin kamayadi.

Palaklar sarg'aygach, barglardan tuganaklarga oqib kelayotgan oziq moddalar tugaydi va o'simlik o'sishdan to'xtab quriydi, tuganaklar esa pishib yetiladi va tinim davriga o'tadi. Tinim davri saqlash sharoiti va kartoshka naviga qarab 2,5-3, hatto 5 oygacha davom etadi. Shundan so'ng tuganaklar nishlay boshlaydi.

Kartoshka ekinining vatani bo'lgan Chilining dengiz bo'yi rayonlari iqlimi yumshoq, salqin, sernam, tuproqlari kaliyga boy. Tuganaklarning shakllanishi seryog'in (300 mm dan ziyod), havoning nisbiy namligi yuqori (75 % dan ortiq), sutkalik o'rtacha harorat yuqori bo'lmagan (10-15<sup>0</sup>S) davrda hamda uzun kun (12-15 soat) sharoitida o'tadi. Shuning uchun filogenez jarayonida kartoshka o'simligi past haroratga, sernamlikka va kunning uzun bo'lishiga moslashgan.

**Haroratga munosabati.** Kartoshka nisbatan past harorat o'simligidir. Tuganaklarning nishlashi va ko'karishi harorat 5-6<sup>0</sup>S dan yuqori bo'lganda boshlanadi. Ko'karib chiqayotgan va chiqqan o'simliklarning tez ildiz hosil qilishi uchun harorat 7<sup>0</sup>S dan pasaymasligi lozim. Shuning uchun kartoshka tuganaklari tuproq 10 sm qatlami 7-8<sup>0</sup>S isiganda ekiladi. Harorat 18-20<sup>0</sup>S bo'lganda o'simliklar tez ko'karib chiqadi.

Nishlatilmagan urug'lik tuganaklar ekilganda unib chiqish ekilganning 20-25-kuni, urug'lik tuganaklar nishlatilib ekilganda esa 6-11 kun oldin ko'karib chiqadi. Ekilgandan unib chiqishgacha haroratning 10-12<sup>0</sup>S gacha pasayishi ko'karishni 5-6 kunga uzaytiradi. Kartoshka urug'lik tuganaklari unib chiqish uchun 240-300<sup>0</sup>S foydali harorat yig'indisini talab etadi.

Harorat 3<sup>0</sup>S dan past va 35<sup>0</sup>S dan yuqori bo'lganda tuganakdagi kurtaklarning o'sish va rivojlanishi to'xtaydi. Bu holatlarda tuganak bir necha kun qolsa, uning o'zi va kurtaklari nobud bo'ladi.

Kartoshka palagining o'sish va rivojlanishi uchun qulay havo harorati 18-23<sup>0</sup>S hisoblanadi. Harorat bundan oshsa, fotosintez sekinlashadi, 40<sup>0</sup>S ga yetganda palak o'sishi to'xtab, fotosintez natijasida hosil bo'layotgan oziq moddalar nafas olish uchun yetmaydi.

**Yorug'likka munosabati.** Kartoshka yorug'sevar o'simlik. Yorug'lik yetishmasa, palaklarning o'sishi, gullashi, tuganak paydo bo'lishi susayib, hosildorlik jiddiy kamayadi. Biroq yoz oylari respublikamizda quyoshning yerga kuchli darajada nur sochishi (insolyasiyasi) o'simlikning o'sish va hosil to'plashiga salbiy ta'sir etadi. Kartoshka bir gektar maydonida 40-50 ming kvadrat metr barg sathi shakllantiradigan ekish qalinligi eng qulay hisoblanadi (T.E.Ostonaqulov, 1991).

Kunning uzunligi ham kartoshkaning o'sish va rivojlanishiga katta ta'sir etadi. Uzun kun o'simlik palagining, qisqa kun esa tuganak shakllanishi va o'sishining jadal o'tishiga olib keladi. Lekin, bu holat shartli bo'lib, ko'pchilik hozirgi ekiladigan navlar uchun uzun kun o'simlikning rivojlanishi va tuganak hosil qilishi uchun ham yaxshidir.

**Namga munosabati.** Kartoshka tuproq va havo namligiga talabchan. O'simlikning o'sish va rivojlanish fazalarida namga bo'lgan talabchanligi turlicha. Bu albatta uning biokimyoviy tarkibi (70-85 % gacha suv), morfologik tuzilishi, ko'p miqdorda biomassa hosil qilishi, barg sathini shakllantirishi va ildiz sistemasining nisbatan yuza joylashishi bilan bog'liq. Kartoshkaning transpirasiya koeffitsiyenti 630-700 ga teng.

Kartoshka palagining yetarli darajada o'sishi va yuqori tuganak hosili to'plash uchun eng qulay sharoit tuproqning namligi dala nam sig'imiga nisbatan unib chiqishdan shonalashgacha 70-75, shonalashdan palak sarg'ayishgacha 80-85, palak sarg'ayishdan yig'ishgacha 75-80 % bo'lganda qayd etiladi (T.E.Ostonaqulov, 1980, 1991).

Kartoshka qurg'oqchilikka ham nisbatan chidamli o'simlik. Qurg'oqchilik boshlanishi bilan transpirasiya va fotosintez jarayoni susayadi, o'simlik o'sish va tuganak tugishdan to'xtaydi, lekin nobud bo'lmaydi. Qurg'oqchilik o'tgach, kartoshkaning tuganak tugishi va uning o'sishi tiklanadi, lekin hosildorlik sezilarli ravishda kamayadi.

Kartoshka yumshoq tuproq ekini. Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, tuproqning hajm massasi 0-30 sm qatlamda  $1,25-1,35 \text{ g/sm}^3$  bo'lsa, kartoshka o'simligi o'sishi, rivojlanishi va yetarli tovar hosil to'plashi uchun qulay sharoit yaratiladi (T.E.Ostonaqulov, 1991).

Kartoshka sho'r yerlarda yaxshi o'smaydi, ayniqsa xlorli sho'rlanish o'simlikka yomon ta'sir ko'rsatadi. Akademik V.I.Zuyev ta'kidlashicha, tuproq tarkibidagi xlor 0,015-0,020 % dan oshsa, hosildorlik sezilarli kamayib, 0,05-0,07 % bo'lsa o'simlikda tuganaklar deyarli hosil bo'lmaydi. Shuning uchun bunday sho'rlangan yerlarda kartoshka o'stirishdan oldin tegishli meliorativ tadbirlar o'tkazilishi shart.

Kartoshka ekini tuproq eritmasining kuchsiz kislotali ( $rN=5-6$ ) bo'lishini hohlaydi. Lekin, neytral va kuchsiz ishqoriy tuproqlarda yaxshi o'sib, yuqori hosil beradi.

**Oziq elementlarga munosabati.** Kartoshka tuproqdagi oziq elementlarga talabchan o'simlik. Bu uning biologik xususiyatlari, ko'p miqdorda biomassa to'plashi va nisbatan ildiz sistemasining kuchsiz rivojlanganligi bilan bog'liq. O'rtacha har 100 sentner (10 tonna) kartoshka hosili o'zi bilan 50 kg azot, 20 kg fosfor, 90 kg kaliy olib chiqadi.

Oziq elementlarning tuproqda yetishmasligi yoki ortiqcha miqdorda bo'lishi o'simlikning vegetativ va reproduktiv organlarining nisbatiga, mahsuldorligi, kasallik, noqulay sharoitlarga, aynishga chidamligi, hosildorlik, tuganak biokimyoviy tarkibi, saqlanuvchanligi va urug'lik sifatiga nihoyatda katta ta'sir etadi.

### **1.3. Ertagi kartoshka usishi, rivojlanishi, xosildorligiga tuganaklar o'stirib olishning ta'siri bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari va ularning tahlili**

Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida, jumladan Uzbekistonda olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining ko'rsatishga kartoshka virussiz urug'chiligida elita yetishtirish uchun faqat uchki meristema usulida sog'lomlashtirilgan tuganaklardan foydalanish ishlarining samaradorligini belgilamaydi. Chunki, sog'lom o'simliklarni yetishtirish davomida keyingi reproduksiyalarida ular qaytadan viruslar bilan zararlanishi mumkin. (Pisarev B.A., Trofimes L.N., 1982, Ergashev I., 1998). Sog'lom o'simliklarni qaytadan zararlanishini oldini olish tadbirlari qo'llanilmasa o'simliklarning kasallanish darajasi shunday darajaga yetishi mumkinki, ulardan urug'lik maqsadida foydalanish mumkin bo'lmaydi (Zykin A.G., 1976)

Bu ma'lumotlar kartoshka urug'chiligida har bir muayyan regionning tuproq-iqlim sharoiti hamda navlarning biologik xususiyatlarini hisobga olgan xolda qo'llanilishi lozim bo'lgan tadbirlar majmuasining ahamiyatini ko'rsatadi. Shunday muhim choralardan biri agrotexnik tadbirlar bo'lib, ular orasida o'simliklarning o'suv davrini ertaroq o'tishini va tezlashtirishini ta'minlovchi, urug'lik tuganaklarni ekish oldi o'stirib olish hisoblanadi. (Abdukarimov D.T., 1987, Ostonakulov T.E., 1997).

Bu tadbirlarning kartoshka urug'chiligida ahamiyati to'g'risidagi ma'lumotlar ushbu dissertasiyaning adabiyotlar tahlilida ham keltirilgan.

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlar bizga o'z tadqiqotlarimizda virussiz asosda tashkil etilgan urug'chiligi paykalarlarida urug'lik tuganaklarni ekish oldi tayyorlashning majmuasi hamda hosilni yig'ish oldi palaklar senikasiyasining o'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, hosildorligi va urug'lik sifatlariga ta'sirini o'rganishga asos bo'lib xizmat qildi.

Tajribalarda tuganaklarni ekish oldi tayyorlash ularni 0,5-1,0 sm uzunlikdagi o'simtalar hosil qilgunicha dastlab 7-10 kun davomida 18-20<sup>0</sup>S haroratda, keyinchalik 10-15<sup>0</sup>S haroratda yorug'lik sharoitida ikki marta mikroelementlar va mineral o'g'itlarning kuchsiz (0,3-0,6%) eritmasida ishlashni o'z ichiga oldi. (D.S.Normurodov 1999)

O'simliklarning o'sishi va rivojlanishi davomida ularda fenologik kuzatishlar, biometrik o'lchovlar, vegetativ massasi va tuganaklar hosil bo'lish dinamikasi, hosildorlik, hosil strukturasi ta'siri o'rganildi.

Bundan tashqari, tajriba variantlarida qo'llanilgan tadbirlarning kartoshkaning urug'lik sifatlariga ta'siri o'rganildi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, urug'lik tuganaklarni ekish oldi tayyorlash majmuasi o'simliklarning unib chiqishini 5-6 kunga, bu esa o'z navbatida keyingi rivojlanish fazalarini ham 4-5 kunga tezlashtirishi va natijada o'suv davri davomiyligi navlar bo'yicha 5-6 kunga qisqarishiga olib keldi. (1-jadval).

**Urug'lik tuganaklarni ekish oldi o'stirib olishning o'simliklarning fenologik fazalarining o'tishiga ta'siri**

| Variantlar                 | Ekilganda so'nggi davr, kun    |                |             |                         | O'suv davri davomiyligi |
|----------------------------|--------------------------------|----------------|-------------|-------------------------|-------------------------|
|                            | unib chiqquncha                | shonala-gancha | gullagancha | palak sarg'ayishi-gacha |                         |
|                            | Z a r a f s h o n      n a v i |                |             |                         |                         |
| O'stirib olingan (nazorat) | 18<br>24                       | 41<br>46       | 49<br>55    | 87<br>98                | 69<br>74                |
|                            | N y e v s k i y      n a v i   |                |             |                         |                         |
| O'stirib olingan (nazorat) | 19<br>24                       | 43<br>48       | 51<br>57    | 89<br>100               | 70<br>76                |
|                            | S a n t e      n a v i         |                |             |                         |                         |
| O'stirib olingan (nazorat) | 20<br>26                       | 50<br>57       | 62<br>66    | 98<br>107               | 78<br>81                |

O'rganilgan navlar orasida o'suv davri eng qiska (69-74 kun) bo'lgan Zarafshon navida unib chiqishdan shonalashgacha bo'lgan davr davomiyligi variantlar bo'yicha (23-24 kun) keskin farq qilmasa-da, lekin unib chiqish tuganaklar o'stirib ekilgan variantda 6 kun tezroq ro'y berganligi uchun ham unib chiqishdan to shonalashgacha 41 kun o'tgan bo'lsa, nazorat variantida 46 kunni tashkil qildi. Bu farq o'simliklarning gullash davrigacha saqlanib qoldi. O'suv davri davomiyligi o'rtasidagi variantlar bo'yicha farq 5 kunni, Nevskiy navida 6 kunni tashkil qildi. (Kartoshkaning Sante navida esa tuganaklarni ekish oldi tayyorlash o'suv davrini 3 kunga jadallashishiga olib keldi).

Bu farq o'simliklarni gullash davrigacha saqlanib qoldi. O'suv davri davomiyligi o'rtasidagi variantlar bo'yicha farq Zarafshon navida 5 kunni, Nevskiy navida 6 kunni tashkil qildi. Kartoshkaning Sante navda esa tuganaklarni ekish oldi tayyorlash o'suv davrini 3 kunga jadallashishiga olib keldi. Bunday natijalar Yu.I.Vlosov va E.I.Larinaning (1982), B.A.Pisarev va L.N.Trofimeslarning (1982), N.N.Balashev (1976) va T.E.Ostonaqulovlarning (1991) ekish oldi tuganaklarni o'stirish o'simliklarning hamma o'suv fazalarning jadallashishiga olib kelishi to'g'risidagi ma'lumotlariga mos keladi.

Shuni ham ta'kidlash lozimki, o'simliklar, fenofazalarining o'tishi jadallashishi bilan birga urug'lik tuganaklari o'stirib olingan variantlarda ularning baland bo'yli, ko'p poyali, yon poyalari va barglar soni ko'p bo'lganligi kuzatildi (2. jadval). O'tkazilgan biometrik o'lchovlar shuni ko'rsatdiki, tuganaklari o'stirib ekilgan variantda Zarafshon navi o'simliklarining gullash davrida bo'yi o'rtacha 67,1 sm. bo'lib, ularning har birida 5,6 dona asosiy poya, 18,4 ta yon poyalar va 85,2 ta barg shakllandi. Nazorat variantda esa bu ko'rsatgichlar muvofiq ravishda 60,7 sm, 5,0, 12,1 va 76,3 donani tashkil etdi. Xuddi shunday natijalarni kartoshkaning o'rganilgan Nevskiy va Sante navlarida ham kuzatildi. O'simliklar bo'yi (74,5 sm), yon poyalar soni (25 dona) va barglar soni (95,2 dona) bo'yicha Sante navi tezpishar Zarafshon va Nevskiy navlariga nisbatan yuqori ko'rsatgichga ega ekanligi biometrik o'lchovlardan ko'rindi.

Bu esa o'rta tezpishar bo'lgan Sante navning biologik xususiyatlaridan kelib chiqadi. Olingan natijalar urug'lik materialni ekish oldi o'stirib olish va tayyorlash usullari tuganaklardagi fiziologik jarayonlarning jadallashishiga olib kelishidan dalolat beradi. Bu esa, o'z navbatida tuganaklardagi ko'proq (o'rtacha 0,6-0,8 ta) ko'zchalarning uyg'onishiga olib kelishi sababli ko'p poyali o'simliklarning shakllanishiga, o'simliklarning onalik tuganakdagi ozuqa moddalaridan to'liqroq foydalanishga, erta hosil bo'lgan ildiz sistemasining kuchliroq rivojlanishiga olib kelishini isbotlaydi. Keltirilgan omillar esa o'simliklarning rivojlanishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

**Urug'lik tuganaklarni ekish oldi o'stirib olishning o'simliklarning biometrik ko'rsatgichlariga ta'siri**

| Variantlar                         | Biometrik ko'rsatgichlar |                           |                  |              |
|------------------------------------|--------------------------|---------------------------|------------------|--------------|
|                                    | o'simlik bo'yi, sm.      | asosiy poyalar soni, dona | yon poyalar soni | barglar soni |
| <b>Z a r a f s h o n   n a v i</b> |                          |                           |                  |              |
| 1                                  | 67,1                     | 5,6                       | 18,4             | 85,2         |
| 2                                  | 60,7                     | 5,0                       | 12,1             | 76,3         |
| <b>N y e v s k i y   n a v i</b>   |                          |                           |                  |              |
| 1                                  | 64,3                     | 4,6                       | 12,3             | 81,0         |
| 2                                  | 59,6                     | 3,8                       | 8,7              | 73,5         |
| <b>S a n t e   n a v i</b>         |                          |                           |                  |              |
| 1                                  | 74,5                     | 5,2                       | 25,0             | 95,2         |
| 2                                  | 70,1                     | 4,6                       | 17,4             | 87,3         |

Ma'lumki, maydon birligida shakllangan assimilyasiya yuzasining kattaligi ekin hosildorligini belgilovchi omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun xam tajribalarimizda o'simliklar unib chiqqandan 20 kundan so'ng har 10 kun muddatlarda ularning barg yuzasi va shunga muvofiq ravishda maydon birligiga to'g'ri keladigan assimilyasiya yuzasi aniqlandi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, urug'lik tuganaklarni ekish oldi tayyorlash o'simliklarda barg yuzasining oshishiga olib kelishidan tashqari bunday yuzaning erta shakllanishiga sabab bo'ladi. Masalan, unib chiqishdan 20 kun o'tgandan so'ng tuganaklar o'stirib ekilgan variantda Zarafshon navining har bir o'simligining barg yuzasi o'rtacha  $2440 \text{ sm}^2$  ni tashkil etgan bo'lsa, nazorat variantda har bir o'simlikda o'rtacha  $2315 \text{ sm}^2$  ni barg yuzasi shakllangan. Kartoshkaning Nevskiy navida bu ko'rsatgich shunga muvofiq ravishda 2040 va  $1803 \text{ sm}^2$  ni, Sante navida esa 2430 va  $2285 \text{ sm}^2$  bo'lganligini ko'rish mumkin. Bu

paytda gektarida o'rtacha variantlar va navlar bo'yicha 10,0 – 13,7 ming m<sup>2</sup> assimilyasiya yuzasi shakllandi.

Variantlar o'rtasidagi farq navlar bo'yicha 12-2,4% ni tashkil etdi. Kartoshkaning Zarafshon navida urug'lik tuganaklar o'stirib ekilgan variantda jami o'simliklarning 9,4% i kasallik belgilarini namoyon qilgan bo'lsa, nazorat variantda bu ko'rsatgich 10,6% ni tashkil qildi. O'rganilgan boshqa navlarda ham bunday ta'sir namoyon bo'ldi va shunga muvofiq ravishda Nevskiy navida 9,6 va 11,2%, Sante navida esa 8,1 va 10,5% o'simliklar yaqqol shakldagi virus kasalliklari bilan zararlanganligini ko'rsatadi (3. jadval).

Shuni ta'kidlash kerakki, ayrim virus kasalliklari bilan zararlanishida navlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ldi.

**Urug'lik tuganaklarni ekish oldi o'stirib olishning o'simliklarning virus kasalliklari bilan zararlanishiga ta'siri**

| Variantlar                   | Virus kasalliklari bilan zararlanish, % |                        |               |                   |                   |               |
|------------------------------|-----------------------------------------|------------------------|---------------|-------------------|-------------------|---------------|
|                              | Jami                                    | j u m l a d a n        |               |                   |                   |               |
|                              |                                         | barg to'ldin-simonligi | oddiy mozaika | burushgan mozoika | yo'l-yo'l mozaika | barg buralish |
| Z a r a f s h o n    n a v i |                                         |                        |               |                   |                   |               |
| 1                            | 9,4                                     | 3,4                    | 1,0           | -                 | -                 | 5,0           |
| 2                            | 10,6                                    | 3,5                    | 1,2           | 0,5               | -                 | 5,3           |
|                              |                                         |                        |               |                   |                   |               |
| N y e v s k i y    n a v i   |                                         |                        |               |                   |                   |               |
| 1                            | 9,6                                     | 3,5                    | 1,6           | -                 | -                 | 4,5           |
| 2                            | 11,2                                    | 3,5                    | 1,8           | 0,5               | -                 | 5,4           |
| S a n t e    n a v i         |                                         |                        |               |                   |                   |               |
| 1                            | 8,1                                     | 4,0                    | 1,2           | -                 | -                 | 2,9           |
| 2                            | 10,5                                    | 5,1                    | 1,5           | -                 | -                 | 3,9           |

Masalan, kartoshkaning Zarafshon va Nevskiy navlarida har ikki variantda ham o'simliklar barg to'liqsimonligi (3,4 – 3,6%), oddiy mozaika (1,0 – 1,8%), burushgan mozaika (0-0,5%) va barg buralish kasalliklari bilan zararlangan bo'lsa, kasallangan o'simliklarning asosiy qismini barg buralish kasalligi (4,5–5,4%) tashkil qildi. Kartoshkalarining Sante navi esa ko'proq (4,0–5,1%) barg to'liqsimonligi bilan zararlanganligi aniqlandi. Shu bilan birga, bu navda og'ir kasallik formasi bo'lgan burushgan mozaika kasalligi bilan zararlangan o'simliklar topilmadi.

Urug'lik tuganaklarning bir reproduksiyaga ta'luqliligini, kelib chiqishi bir xil ekanligi va kasalliklarning namoyon bo'lishiga ta'sir etishi mumkin bo'lgan yetishtirish sharoitining va qo'llanilgan boshqa agrotexnik tadbirlarning bir xilligi hisobga olinsa, olingan natija urug'lik tuganaklarni o'stirish davomida yaxshi rivojlanmagan tuganaklarni olib tashlanganligi bilan bog'lash mumkin. Bu esa mualliflarning yuqorida keltirilgan fikrlarini tasdiqlaydi. Ya'ni tuganaklarni ekish oldi o'stirib olish ularning o'ziga bevosita ta'sir etish orqali bo'lmasa-da, kartoshkaning urug'lik sifatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, kartoshkaning virus kasalliklari bilan zararlanishining yana bir muhim va havfli - yashirin (latent) shakli mavjud. Viruslar bilan bunday shaklda zararlangan o'simliklarda kasallik belgilari namoyon bo'lmasa ham ulardagi fiziologik jarayonlarga ta'siri tufayli ekin hosildorligini sezilmas darajadan keskin pasaytirish darajasigacha pasaytirishi mumkin. (Zыkin A.G., 1976, Popkova K.V. va boshq., 1980, Pisarev B.A., Trofimes L.N., 1982). Yashirin shakldagi viruslar ta'sirida hosildorlikning pasayish darajasi nav xususiyatlari, tuproq-iqlim sharoiti va ekinni yetishtirishda ko'llaniladigan agrotexnikaga bog'liq ravishda o'zgarishi mumkin. (Ergashev I.T., 1997). Keltirilgan ma'lumotlarni kartoshka urug'chiligida o'simliklarning yashirin shakldagi viruslar bilan zararlanish darajasiga agrotexnik tadbirlarning ta'sirini o'rganish muhim masalalaridan biri ekanligidan dalolat beradi.

Tajribarimizda o'simliklarning shonalash va gullash davrlarida ularning yashirin shakldagi X, S, M va U viruslari bilan zararlanganligini aniqlash uchun serologik va qisman immunoferment analizlar o'tkazildi. Bunday tahlillarning ko'rsatishicha, urug'lik tuganaklari ekish oldi, o'stirib tayyorlangan variantda nazorat variantga nisbatan o'simliklar viruslar bilan kam darajada zararlandi. Bunday natijalar o'rganilgan hamma navlarda ham kuzatildi. Masalan, Zarafshon navida o'rganilgan variantda jami tekshirilgan o'simliklarning 26,3% i viruslar bilan zararlangan bo'lsa, nazorat variantda esa 34,0% o'simliklar tarkibida viruslar mavjudligi aniqlandi. Kartoshkaning Nevskiy va Sante navlarida shunga muvofiq ravishda 31,8 va 40,1% hamda 26,3 va 33,4% ko'rsatgichlar olindi.

Ayrim viruslar bilan zararlanishida kartoshka navlari o'ziga xos xususiyatlarini namoyon qildi. Masalan, Zarafshon navi ko'proq S virusi bilan, Nevskiy navi S va M, Sante navi o'simliklari esa boshqa viruslarga nisbatan M virusi bilan ko'proq zararlanganligi aniqlandi. Bu natija navlarning shu viruslarga nisbatan chidamsizlik xususiyatlari bilan bog'liq deb hisoblaymiz.

Tajribalarning ko'rsatishiga urug'lik tuganaklarni ekish oldi o'stirib olish o'simliklarning ayrim viruslar bilan kamroq zararlanishiga olib keldi. Bunday qonuniyat hamma navlarda ham o'simliklarning asosan entomofil hisoblangan. M va U viruslari bilan zararlanish darajasida kuzatildi. Masalan, Zarafshon navida o'rganilgan variantda tekshirilgan o'simliklarning 3,1% ida nazorat variantida esa 4,0% ida X virusi topilgan bo'lsa, S virusiga nisbatan esa bu ko'rsatgichlar 15,5 va 16,4% ni tashkil qildi. Ya'ni variantlar bo'yicha zararlanish o'rtasidagi farq, har ikki viruslarda 1,1% ni tashkil qilgan. O'simliklarning M virusi bilan zararlanishi bo'yicha variantlar o'rtasidagi farq 2,5% ni, U virusi bo'yicha farq esa 3,4% ni tashkil qildi. Xuddi shunday natijalar kartoshkaning Nevskiy va Sante navlarida ham olindi (4-jadval).

**Urug'lik tuganaklarni ekish oldi o'stirib olishning kartoshkaning viruslar bilan zararlanishiga ta'siri**

| Variantlar                     | O'simliklarning viruslar bilan zararlanishi, % |                 |      |      |      |                            |
|--------------------------------|------------------------------------------------|-----------------|------|------|------|----------------------------|
|                                | jami                                           | j u m l a d a n |      |      |      |                            |
|                                |                                                | X               | S    | M    | U    | kompleks holda,<br>X+S+M+U |
| Z a r a f s h o n      n a v i |                                                |                 |      |      |      |                            |
| 1                              | 26,3                                           | 3,1             | 15,5 | 3,3  | 4,4  | 5,3                        |
| 2                              | 34,0                                           | 4,0             | 16,4 | 5,8  | 7,8  | 7,0                        |
| N y e v s k i y      n a v i   |                                                |                 |      |      |      |                            |
| 1                              | 31,8                                           | 4,2             | 12,5 | 6,5  | 8,3  | 6,4                        |
| 2                              | 40,1                                           | 5,7             | 13,0 | 9,3  | 12,1 | 8,1                        |
| S a n t e      n a v i         |                                                |                 |      |      |      |                            |
| 1                              | 26,3                                           | 5,8             | 6,5  | 10,1 | 3,9  | 6,6                        |
| 2                              | 33,4                                           | 6,2             | 7,2  | 12,5 | 7,5  | 8,4                        |

Urug'lik tuganaklarini o'stirib olishning kartoshka hosildorligi va sohaning iqtisodiy samaradorligiga ta'siri. Qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishda ko'llaniladigan har qanday tadbirning samaradorligi uning hosildorlikka va mahsulot sifatiga ta'siri bilan belgilanadi.

Tadqiqotlarning ko'rsatishicha, o'rganilgan hamma navlarda urug'lik tuganaklarni ekish oldidan o'stirib tayyorlash kartoshka hosildorligini oshirish imkonini beradi. Masalan, Zarafshon navida bunday variantdan o'rtacha gektaridan 23.1 t. hosil olingan bo'lsa, nazorat variantida hosildorlik gektar hisobiga 21.0 t. ni tashkil etdi.

Kartoshkaning Nevskiy va Sante navlarida ham analogik natijalar kuzatildi. Navlar bo'yicha bu ko'rsatkichlar o'rtacha 21.4 va 19.2 t. hamda 26.6 va 24.0 t. ni tashkil qildi. Ya'ni o'rganilgan navlar orasida eng yuqori hosil Sante navidan olindi. (5- jadval).

Jadval ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, qo'llanilgan agrotexnik tadbirning samaradorligi navlar bo'yicha qo'shimcha 10-11.4 % hosil olish imkonini berganligidan ko'rish mumkin. Ya'ni Zarafshon navida urug'lik tuganaklarni ekish oldi o'stirib olish nazorat variantga nisbatan 10%, Nevskiy navida 11,4% va Sante navida 10,8% qo'shimcha hosil olishni ta'minladi.

Hosil strukturasi tahlili shuni ko'rsatdiki, urug'lik tuganaklarni o'stirib ekilganda o'simliklarning o'sish va rivojlanishining jadallashishi, hosil to'plash dinamikasini tezlashtirganligi sababli mayda tuganaklarning chiqimi kamayadi. Hosil tarkibida yirik tuganaklar chiqimining oshishi kuzatildi. Bu esa o'z navbatida vazni 30-80 gramm bo'lgan tuganaklar chiqimini ham kamayishi kuzatildi. O'rganilgan hamma navlarda ham shunday natijalar olindi. Masalan, Zarafshon navida urug'lik tuganaklari o'stirib ekilgan variantda massasi 30 grammgacha bo'lgan tuganaklar chiqimi 5,4% ni, massasi 30-80 g. bo'lgan tuganaklar chiqimi 73,4% ni tashkil etgan bo'lsa, umumiy hosilning 21,2% i yirik tuganaklar hisobiga to'g'ri keldi. Nazorat

variantda bu ko'rsatgichlar shunga muvofiq ravishda 7,8, 76,2 va 16,0 foizni tashkil etdi.

Hosil strukturasi shuni ko'rsatdiki, navlar orasida Sante navi eng yirik tuganakli ekanligini ko'rsatadi. O'rganilgan variantda bu nav hosilining 22,5 % ni massasi 80 grammdan yirik tuganaklarni tashkil qilgan bo'lsa, nazorat variantda bu ko'rsatgich 17,3 % ni tashkil qildi.

5 jadval

**Kartoshka urug'lik tuganaklarini o'stirib ekishning hosildorlik va hosil strukturasi ta'siri**

| Variantlar                | Takrorlar bo'yicha hosildorlik |      |      |      | O'rtacha<br>hosildorli<br>k, t/ga | Hosildor-<br>likning<br>oshishi, % | Hosil strukturasi, gramm |       |      |
|---------------------------|--------------------------------|------|------|------|-----------------------------------|------------------------------------|--------------------------|-------|------|
|                           | I                              | II   | III  | IV   |                                   |                                    | <30                      | 30-80 | >80  |
| Z a r a f s h o n n a v i |                                |      |      |      |                                   |                                    |                          |       |      |
| O'stirilgan               | 24,0                           | 22,3 | 22,6 | 23,5 | 23,1                              | 110,0                              | 5,4                      | 73,4  | 21,2 |
| nazorat                   | 22,1                           | 20,4 | 20,5 | 20,7 | 21,0                              | 100                                | 7,8                      | 76,2  | 16,0 |
| N y e v s k i y n a v i   |                                |      |      |      |                                   |                                    |                          |       |      |
| O'stirilgan               | 22,7                           | 20,2 | 21,8 | 20,9 | 21,4                              | 111,3                              | 6,0                      | 73,7  | 20,3 |
| nazorat                   | 20,6                           | 18,0 | 19,9 | 18,3 | 19,2                              | 100                                | 8,1                      | 76,8  | 15,1 |
| S a n t e n a v i         |                                |      |      |      |                                   |                                    |                          |       |      |
| O'stirilgan               | 29,0                           | 26,5 | 28,2 | 26,7 | 26,6                              | 110,8                              | 4,2                      | 73,3  | 22,5 |
| nazorat                   | 25,3                           | 23,1 | 25,0 | 22,6 | 24,0                              | 100                                | 6,1                      | 76,6  | 17,3 |

EAF<sub>05</sub> t/ga

1,4-1,6

## 2. O'zbekistonda rayonlashtirilgan va keng tarqalgan kartoshka navlari

Respublikamizda o'suv davri 70-90 kun bo'lgan Belorusskiy ranniy, Zarafshon, Nevskiy, Ogonyok, Arinda, Bahro – 30, Quvonch – 16/56 m, Red Skarlet, Fresko, Esprit, Bardoshli – 3, Sante, Marfona, Romano, Kondor, Kosmos, Eskord, Binella, Detskoselskiy, Likariya Karatop, Karetta, Latona, Simfoniya kabi tezpishar va o'rtatezpishar, o'suv davri 93-115 kun Sulev, Arnova, Hamkor – 1150, Temp, Pikasso, Kardinal, Diamant, Agriya va boshqa o'rtapishar hamda o'rtakechpishar navlar ekiladi.

Keng tarqalgan rayonlashtirilgan navlarning morfologik belgilari va xo'jalik-biologik ta'rifi keltirilgan.

**Zarafshon navi** - Samarqand qishloq xo'jalik institutida dunyo kolleksiya namunalaridan Vir K-5175 i K—6234 chatishtirib yaratilgan. 1985 yilda O'zbekiston hamma joylarida rayonlashtirilgan.

Ertapishar, tosh sifati yaxshi (4-6 ball). Hosildorligi yuqori 240-260 s/ga. Tovarligi yuqori 95-98 % virus kasalliklari, yuqori haroratga chidamli. Tuganaklari to'q sariq, uzun ovalsimon, kraxmal miqdori 13,6-15,8 %. Barglari yirik, to'q yashil rangda. Intensiv joyda hosildorligi yuqori bo'lib, ertagi, kechg'i va ikki hosilli ekishga xos. Saqlanuvchanligi yaxshi.

**Nevskiy navi** – Shimoliy - G'arbiy QXITI da duragaylash, yakka tanlash orqali Ye. A. Osipova yaratgan. Gul to'plami shakli g'uj, gul toji oq rangda, gul kosa bargi uchi bargsimon, barglari ovalsimon, tuganaklari sarg'ish rangda, uzun oval shaklda, po'sti silliq, tuganakdagi ko'zchalari qizil. O'suv davri 80-85 kun. 1981 yil rayonlashtirilgan. O'rta tezpishar, intensiv tipda, hosildorligi yuqori, yozda kovlab olingan tuganaklar bilan ekishga yaroqli. Saqlanuvchanligi yaxshi.

**Sante navi**- Gollandiyada duragaylash, yakka tanlash orqali I. Vekter yaratgan. Gul to'plami g'uj, gul toji oq rangda, gul kosa bargi uchi bargsimon, bargi uzunroq tuxumsimon, tuganagi sarg'ish, shakli yumaloq ovalsimon, po'sti silliq, o'suv davri 80-85 kun, 1993 yildan beri keng ekilib kelinadi. plastik, o'rta

tezpishar intensiv nav. Hosildorligi yuqori. Ertagi, kechki va ikki hosil ekishga mos. Saqlanuvchanligi juda yaxshi.

**Marfona navi-** Gollandiya (Agriko) duragaylash, yakka tanlash orqali I.P.G.Kenst yaratgan. Gul to'plami g'uj shalda, gul toji oq rangda, barglari ovalsimon, tuganaklari sarg'ish, uzun oval shaklda, po'sti silliq. O'suv davri 85-90 kun, 1992-1996 yil ko'p ekildi. O'rta tezpishar hosidor. Ertagi, kechki va ikki hosil ekishga mos. Saqlanuvchanligi yaxshi.

**Detskoselskiy navi-** Butun Ittifoq O'simlikshunoslik ilmiy tadqiqot institutida (1959 g) yaratilgan. Rannaya roza navi va murakkab gibrid ( $F_2$  solyanum delissum x Solyanum andigenum) solanum demissum x Solanum andegenum chatishtirib olingan o'otatezpishar yuqori hosildor. Krxmalligi o'rtacha ftorozga chidamli. Tuganaklari yirik pushti rang, ovalsimon, ko'zlari kam yuza joylashgan. Barglari to'q yashil rangda.

**Belorusskiy navi-** belarussiya kartoshkachilik va meva sabzavotchilik ilmiy tadqiqot institutida P. I. Alsmik boshchiligida Elikur va Priskulstiy ranniy navlari chatishtirib yaratilgan. Ertatezpishar, yuqori hosildorligi 200-250 s/ga v undan yuqori. Tuganaklarda krazmal miqdori- 12-14 %, 2-2,5 % protein mavjud. Rak kasalligiga chidamli. Fitoftoroz kuchli zararlanadi, virus kasalliklariga chidamsiz. Tuganak mevasi oq, virus kasalliklariga chidamsiz. Tuganak mevasi oq, barglari yirik, to'q yashil rangda. Gullari oq.

**Priyekulskiy ranniy-** priyekulskiy seleksion tajriba stansiya Latviya dehqonchiligi instituti E. I. Peterson (1953). Kobbler va Yubel navlarini chatishtirib olingan, 58 oblastida rayonlashtirilgan, shu jumladan O'zbekistonda ham. O'zbekistonda hosildorligi 200-220 s/ga. Yuqori hosildor past va o'rtacha (11-14 %), tuganaklar tovarligi yaxshi o'rtascha (79-80 %). Rakka chidamli. Tuganaklarni kuchsiz fitoftoroz bilan zararlanadi.

Tuganaklari oq, yumaloq-ovalsimon. Barglari to'q yashil, yirik. Gullari oq ikki hosilli ekishga mos.

**Ramona navi-** Gollandiya duragaylash, yakka tanlash orqali B. V. Drmaish tomonida yaratilgan. Gul to'plami g'uj, qizil rangda, barglari ovalsimon, uzun-oval, tuganaklari qizil, yumaloq oval shaklda, po'sti silliq.tuganakdagi ko'zchalar soni ko'p o'rtacha chuqurlikda. O'suv davri 80-85 kun. 1993 yildan beri keng ekiladi. Plastik,o'rtatezpishar, hosildorligi yuqori. Ertagi, kechki va ikki hosil ekishga mos. Saqlanuvchanligi yaxshi.

**Kondor navi-** Gollandiya duragaylash, yakka tanlash orqali I.A. Konst yaratgan. Gul to'plami g'uj shaklda, qizil rangda, gul kosa bargi uchining shakli bargsimon, to'g'ri barglari ovalsimon shaklda.,tuganaklari qizil uzun-ovalsimon, po'sti silliq, o'suv davri 85-90 kun. 1996 yildan boshlab ekilmoqda. Plastik,o'rtatezpishar, intensiv sho'rga chidamli nav.o'suv davri 85-90 kun. Hosildorligi juda yuqori. Ertagi, kechki va ikki hosil ekishga mos. Saqlanuvchanligi yaxshi

**Pikasso** -Gollandiya duragaylash, yakka tanlash orqali B. V. Duoplasht yaratgan. Gul to'plami sochma shaklda, gul toji rangi oq, barglari uzunchoq ovalsimon,tuganaklari sarg'ish, ko'zi-qoshi qizilsimon.tuganaklari sarg'ish ko'zi-qoshi qizil rangda uzun oval, po'sti silliq. O'suv davri 90-95 kun. 1996 yildan ekish boshlandi. Plastik,o'rtatezpishar, intensiv sho'rga chidamli nav. Ertagi, kechki va ikki hosil ekishga mos. Saqlanuvchanligi o'rtacha. Tuproq namligi 80 % dan oshsa xaqiqiy qo'tirga chalinuvchan. O'suv davri 90-105 kun.

**Kardinal navi-** Gollandiya duragaylash, yakka tanlash orqali F.Bryanda yaratgan. Gul to'plami g'uj shaklda, gul toji qizil rangda, barglari uzun ovalsimon,tuganaklari qizil rangda, uzun oval shaklda, po'sti silliq, ko'zchalari soni ko'p, chuqurligi yuza joylashgan. O'suv davri 90-105 kun. 1992 yildan beri ekiladi. Plastik,o'rtatezpishar nav. Hosildor. Ertagi, kechki va ikki hosil ekishga mos. Saqlanuvchanligi juda o'rtacha.

**Diamant navi-** Gollandiya duragaylash, yakka tanlash orqali F.Bronds yaratgan. Gul to'plami g'uj shaklda, gul toji pushti rangda, barglari oval, uzun

oval shaklda, tuganaklari oq , oval shaklda, po'sti silliq. O'suv davri 95-105 kun. 1992 yildan beri ko'p tarqalgan. Ekishga mos. Saqlanuvchanligi yaxshi.

### **3. Ertagi kartoshka yetishtirish texnologiyasi**

**Nav tanlash.** Ertagi kartoshkadan yuqori va sifatli hosil olish eng avvalo o'suv davri 70-90 kun bo'lgan tezpishar va o'rtatezpishar navlar; Belorusskiy ranniy, Zarafshon, Nevskiy, Detskoselskiy, Pirmunes, Ogonyok, Gollandiyadan keltirilgan va o'zimizda yaratilgan Arinda, Arnova, Bahro – 30, Quvonch – 16/56 m, Red Skarlet, Fresko, Hamkor – 1150, Esprit, Bardoshli – 3, Sante, Romano, Marfona, Kondor, Binella, Kosmos, Germaniyadan keltirilgan Likariya, Karatop, Latona kabilar ekilgandagina olinadi. O'rtapishar, ya'ni o'suv davri 90 kun va undan ziyod o'rtapishar navlar ertagi kartoshka yetishtirishga yaramaydi. Chunki, ularda hosil tugish yozning jazirama issiq kunlariga to'g'ri kelib qoladi.

**Yer tanlash va tayyorlash.** Ertagi kartoshka uchun poliz, piyoz, karam, kechki bodring, sabzi va dukkakli-don ekinlaridan bo'shagan yerlar eng yaxshi bo'lib, yuqori hosil beradi. Ertagi kartoshka yengil qumoqli mexanik tarkibiga ega o'tloq, o'tloq-bo'z tuproqlarda, daryo yon bag'ri uchastkalarida, tog'li va tog'oldi zonalarida yaxshi o'sib, yuqori hosil beradi.

Shuning uchun bunday maydonlar ertagi kartoshka ekish uchun kuzda gektariga 20-30 t yarim chirigan go'ng, 250-300 kg ammofos va 160-200 kg kaliy sulfat yoki kaliy tuzi solinib, 28-30 sm chuqurlikda shudgorlanadi. Yerni shudgorlash uchun DT-75 M yoki T-4A traktoriga osilgan yoki tirkalgan PN-3-35, PN-4-35, PYa-3-35, PD-3(4)-35 markali pluglardan foydalaniladi.

Erta bahorda shudgor chizel - kultivatorlar hamda zig-zag boronalar yordamida ishlanadi va mola bostirib, ertagi kartoshka ekiladi. Ertagi kartoshka uchun yerni haydash va ekisholdi tayyorlashda Gollandiyaning «Dominator» markali frezali kultivatoridan foydalanish samaralidir. Chunki, u tuproqni yumshatish, tekislash va yuza zichlashni birdaniga amalga oshiradi. Mazkur

texnikada yerni tayyorlash mulchalash, qulay ekish muddati va ekin navini to'g'ri tanlab olib borilganda samarasi yanada yuqori bo'ladi (6-jadval).

**Urug'ni ekishga tayyorlash.** Ertagi kartoshka urug'lik tuganaklarini ekishga tayyorlashning eng muhim va majburiy elementlaridan biri, kattaligiga qarab saralash, 80 grammdan ziyod tuganaklarni esa uzunasiga kesib ekish hisoblanadi.

Yuqori hosil olish ko'p jihatdan urug'likning sifatiga bog'liq. Ekish uchun sog'lom, ekilayotgan navga xos shaklga ega bo'lgan 30 grammdan 80 grammgacha kattalikdagi tuganaklar saralab olinadi. Yirik tuganaklar kesilgach, har bir tonnasiga chirish va kasallanmaslik uchun 5-6 kilogramm TMTD poroshogini 100 l suvda aralashtirib ivitib ekish eng yaxshi natija beradi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, urug'lik tuganaklarni ekish oldidan 100 l suvda 5-6 kilogramm TMTD bilan birga 2,0 gramm qahrabo kislotasi, 50-100 grammdan bor kislota, marganes sulfat, mis kuporosi hamda 4 kilogramm ammofos qo'shib ivitib ekilsa, hosildorlik 11-20 % ga oshishi aniqlangan.

Urug'lik tuganaklar ekish oldidan kesiladi. Lekin, ularni kuzda (noyabr oyida) kesib qo'yish ham mumkin. Bunda kesilgan tuganaklar darhol 12-15 kun davomida 12-20<sup>0</sup>S haroratda hamda sernam (80 %) qorong'i joyda saqlanadi. Natijada nam yo'qolmay, ichiga mikroorganizmlar kirishidan saqlaydigan probka qavat hosil qiladi.

**Plyonka ostida ekilgan ertagi kartoshka navlari yerni tayyorlash hamda ekish qulay muddatlarida o'stirishning hosildorlik va iqtisodiy samaradorlikkka ta'siri (2005-2006 yillar)**

| No<br>t/r                        | Yerni<br>tayyorlash                                                          | Ekish<br>muddat<br>i | Mulchalas<br>h      | Hosildorlik,<br>t/ga | qilingan<br>xarajatlar,<br>ming so'm | tannarxi,<br>so'm | olingan sof<br>daromad,<br>ming so'm | Rentabellik, % |
|----------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|----------------------|---------------------|----------------------|--------------------------------------|-------------------|--------------------------------------|----------------|
| <b>O'rtatezpishar Sante navi</b> |                                                                              |                      |                     |                      |                                      |                   |                                      |                |
| 1.                               | Kuzda<br>shudgor +<br>bahorda<br>chizel,<br>borona,<br>jo'yak<br>olish (st.) | 10-<br>13.02         | Mulchasiz<br>(st.)  | 22,0                 | 706.1                                | 3209              | 173.9                                | 24,6           |
| 2.                               | -/-/-                                                                        | -/-/-                | Plyonka<br>(chigit) | 25,8                 | 808.6                                | 3134              | 223.4                                | 27,6           |
| 3.                               | -/-/-                                                                        | 12-<br>15.03         | Mulchasiz<br>(st.)  | 17,6                 | 662.0                                | 3761              | 42.0                                 | 6,3            |
| 4.                               | -/-/-                                                                        | -/-/-                | Plyonka<br>(chigit) | 21,7                 | 767.6                                | 3537              | 100.4                                | 13,1           |
| 5.                               | Kuzda<br>shudgor +<br>kuzda<br>Dominato<br>r frezali-                        | 10-<br>13.02         | Mulchasiz<br>(st.)  | 25,7                 | 743.0                                | 2891              | 285.0                                | 38,4           |

|                                      |                                                                              |              |                     |      |       |      |       |      |
|--------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|--------------|---------------------|------|-------|------|-------|------|
|                                      | kultivator<br>bilan<br>ishlash,<br>jo'yak<br>olish                           |              |                     |      |       |      |       |      |
| 6.                                   | -/-/-                                                                        | -/-/-        | Plyonka<br>(chigit) | 29,4 | 844.6 | 2873 | 331.4 | 39,2 |
| 7.                                   | -/-/-                                                                        | 12-<br>15.03 | Mulchasiz<br>(st.)  | 20,2 | 698.1 | 3456 | 109.9 | 15,7 |
| 8.                                   | -/-/-                                                                        | -/-/-        | Plyonka<br>(chigit) | 24,6 | 796.5 | 3238 | 187.5 | 23,5 |
| <b>Tezpishar Kuvonch-16/56m navi</b> |                                                                              |              |                     |      |       |      |       |      |
| 9.                                   | Kuzda<br>shudgor +<br>bahorda<br>chizel,<br>borona,<br>jo'yak<br>olish (st.) | 10-<br>13.02 | Mulchasiz<br>(st.)  | 19,5 | 703.6 | 3608 | 76.4  | 10,9 |
| 10                                   | -/-/-                                                                        | -/-/-        | Plyonka<br>(qalin)  | 24,3 | 823.2 | 3388 | 148.8 | 18,1 |
| 11.                                  | -/-/-                                                                        | 12-<br>15.03 | Mulchasiz<br>(st.)  | 17,3 | 676.6 | 3911 | 15.4  | 0,2  |
| 12.                                  | -/-/-                                                                        | -/-/-        | Plyonka<br>(qalin)  | 20,5 | 755.1 | 3683 | 64.9  | 0,9  |

|     |                                                                                                            |              |                    |      |       |      |       |      |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|--------------------|------|-------|------|-------|------|
| 13. | Kuzda<br>shudgor +<br>kuzda<br>Dominato<br>r frezali<br>kultivator<br>bilan<br>ishlash,<br>jo'yak<br>olish | 10-<br>13.02 | Mulchasiz<br>(st.) | 24,1 | 727.0 | 3017 | 237.0 | 32,6 |
| 14. | -/--/-                                                                                                     | -/--/-       | Plyonka<br>(qalin) | 28,3 | 833.5 | 2945 | 298.5 | 35,8 |
| 15. | -/--/-                                                                                                     | 12-<br>15.03 | Mulchasiz<br>(st.) | 19,8 | 684.0 | 3455 | 108.0 | 15,8 |
| 16. | -/--/-                                                                                                     | -/--/-       | Plyonka<br>(qalin) | 24,5 | 796.0 | 3249 | 184.0 | 23,1 |

### **Ekish oldidan urug'lik tuganaklarni nishlatish, ekish usuli va muddati.**

Yuqoridagi tartibda urug'lik tuganaklar tayyorlangach, ekish oldidan 20-25 kun davomida yorug' ham issiq (12-15 darajali) xonalarda 2-3 qatlam qalinlikda yoyilib nishlatiladi. Natijada yashil, baquvvat 0,5-1,0 santimetr uzunlikdagi o'simtalar hosil qiladi. Urug'likni ana shunday nishlatib ekish mo'l hosil olishga qaratilgan muhim tadbir bo'lib, natijada kartoshka hosili 18-25 foizgacha oshib, 10-12 kun erta pishib yetiladi. Shunga qaramasdan bu tadbir kartoshka yetishtiruvchi xo'jaliklarda har yili yetarli darajada o'tkazilmaydi. Nishlatilgan tuganaklar o'simtasi sinmaslik uchun dalalarga qattiq idishlarga (yashik va savatlarga) solib yuboriladi.

Aholini oziq-ovqat mahsuloti ertagi kartoshka bilan ta'minlashning omillaridan biri ekish muddati hisoblanadi.

Tajribalarning ko'rsatishicha, tezpishar kartoshka navlari ertagi muddatda tuproq 10 santimetr qatlam harorati 6-7 darajaga ko'tarilgach ekilgani ma'qul.

Bu muddat respublikamiz tekislik zonasida joylashgan xo'jaliklarda 10 fevraldan 15 martgacha, tog'oldi mintaqalarda esa 10-25 martlargacha to'g'ri keladi.

Kartoshka bundan kech ekilganda qish va bahorda tuproqda to'plangan namdan yaxshi foydalana olmaydi. Shu tufayli uning ko'klab ketishi qiyinlashadi, ekin sust rivojlanadi, tuganaklarning paydo bo'lishi yozning issiq pallasiga cho'zilib ketadi. Ertagi kartoshkani ekish erta bahorda qishloq xo'jalik texnikalari dalaga kirish mumkin kuniyoq boshlash talab qilinadi. Ertagi kartoshka ekish kechiktirilgan har bir bahorning kuni- hosildorlikni bir foiz kamayishiga olib keladi.

Ertagi kartoshka hosildorligi ko'p jihatdan uning tup qalinligiga ham bog'liq. Ertagi muddatda ekilgan kartoshkaning o'suv davri bir muncha qisqa bo'lganligi uchun tezpishar navlarning biologik xususiyatlariga ko'ra, uning palagi kuchli o'smaydi

Shuni hisobga olib, uni qalinroq ekan ma'qul. Shunda bir gektar maydondagi o'simliklar soni ortibgina qolmay, balki paykalning iqlim sharoiti yaxshilanib, tuproq ortiqcha qizib ketmaydi, harorat pasayib, o'simlik atrofida havoning namligi oshadi. Bu ekinning o'sishi, rivojlanishi, tuganak paydo bo'lishi va yetilishi, nihoyat hosildorlikning ortishiga foydali ta'sir etadi.

Shuning uchun har gektar maydonda 57 mingtadan 71 mingtagacha ko'chat bo'lgani yoki 70x20-25 santimetr sxemada, ya'ni qator orasi 70 santimetr, tuganaklar orasi 20-25 santimetr qilib ekilgani maqsadga muvofiq. Buning uchun har gektarga 3,0-3,5 tonna urug'lik tuganaklar ekilishi, ekiladigan tuganaklarning vazni esa 30-80 gramm bo'lishi lozim.

Ertagi kartoshkani yuqorida qayd etilgan muddat, ekish sxemasi va chuqurlikda vazni 30-80 grammlik nishlatilgan urug'lik tuganaklarni ekish uchun Belarus yoki MTZ-50 traktoriga osib SN-4B markali to'rt qatorli kartoshka o'tqazuvchi sajalkadan foydalaniladi. Ushbu sajalka yordamida traktor yurish tezligini o'zgartirish bilan istalgan tup sonini ta'minlash mumkin.

Ekish bilan birgalikda yillik azotli o'g'it normasining 20 foizi, fosforli o'g'itlarning qolgan hamma normasi solinadi. Yuqorida ko'rsatilgan sajalka bo'lmagan xo'jaliklarda kartoshkani turli kultivatorlar yordamida qator orasini 70 santimetr qilib, 8-10 santimetr chuqurlikda chizib, qo'lda tuganaklarni egat ichiga qo'yib, yana kultivator (okuchnik) yordamida uni pushtadan 10-2 santimetr chuqurlikda yuritib, urug'lik kartoshkani ko'mish mumkin.

Ertagi kartoshkadan barvaqt hosil yetishtirishda pushta olib ustiga ekish eng istiqbolli usul hisoblanadi. Buning uchun qator oralari 70 yoki 90 santimetr qilinib, 18-25 santimetr chuqurlikda egatlar kuzda yoki erta bahorda olinadi. So'ngra pushtaga fevral oyi va mart oyi birinchi o'n kunligida nishlatilgan yoki yuqorida ta'kidlangan o'stiruvchi moddalar eritmasida ivitilgan tuganaklar 6-santimetr chuqurlikda ekiladi. Ekish bilan darhol chirigan va elangan go'ng yoki yorug'lik o'tkazuvchi polietilen plyonkasi yordamida mulchalash issiqlik va namlik rejimini tartibga solib, barvaqt va qiyg'os ko'chatlar olishni, hosil to'plashni tezlashtiradi.

**Ekinni parvarish qilish.** Ertagi kartoshka odatda 20-25 kundan keyin ko'karib chiqadi. Bu vaqt ichida ekinni begona o't bosib ketadi, bahorgi yog'ingarchiliklar tufayli tuproq zichlashib qatqaloqlashadi. Natijada endi una boshlagan urug'lik tuganak yotgan tuproqning havo va issiqlik rejimi yomonlashadi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun ertagi kartoshkaning birinchi va asosiy parvarishi unib chiqqungacha yerni 1-2 marta boronalash hisoblanadi.

Kartoshka BS-2, BSN-4 markali to'rsimon boronalar yoki zig-zag borona yordamida ko'ndalangiga ishlanadi. Bu bilan tuproqning havo va suv rejimi yaxshilanadi, maysalarning qiyg'os unib chiqishi uchun qulay sharoit ta'minlanadi, qatqaloq va begona o'simliklar ancha yo'qotiladi.

Maysalar unib chiqquncha qator oralari to'rsimon borona osilgan kultivator bilan 1-2 marta ishlov berilsa ham, hosil 12-15 foizgacha oshadi. Bunda bir vaqtning o'zida ekin qator oralari va egatlar yumshatilib, yoppasiga ishlanadi. To'rsimon borona juda yengil, uning tishlari bir-biriga sharnir usulida biriktirilgan bo'ladi. Shu boisdan boronalayotganda egatni sira buzmaydi, urug'lik va una boshlagan maysalarni shikastlamaydi, u egat marzasini 5-7 santimetr chuqurlikda yumshatadi. Ertagi kartoshka ekilgan yer 10-12 kundan keyin boronalanadi va kultivasiya qilinadi, keyinchalik bu ish yana 10-12 kundan keyin takrorlanishi mumkin. Maysalar to'liq ko'karib chiqqandan keyin boronlash to'xtatilib, qator oralari birinchi marta 12-14 santimetr chuqurlikda, keyingi martalarida esa 14-16 santimetr chuqurlikda kultivasiya qilinadi.

Kartoshka hosil to'plashga to'la kirguncha, har galgi sug'orishdan yoki yog'ingarchilikdan so'ng, kultivasiya qilib turiladi.

**Oziqlantirish.** Ertagi kartoshka o'suv davrida azotli va fosforli o'g'itlar bilan oziqlantirish hosil tovarligini oshirib, sifatini ancha yaxshilaydi. Lekin, shuni hisobga olish kerakki, ertagi kartoshka azotli o'g'itlar bilan ko'p normada oziqlantirilsa, hosildorlik oshadi-yu, ayni vaqtda palaklar g'ovlab, o'simlikning yer ustki qismi kuchli o'sib, o'suv davri uzayadi, tuganaklar pishishi kechikadi. Bundan tashqari kraxmal miqdori tuganakda kamayib, uning saqlanuvchanligi yomonlashadi.

Fosforli o'g'itlar esa, aksincha, ildizlarning rivojlanishiga qulay sharoit yaratadi, tuganaklarning tez yetilishiga hamda kraxmal to'planishiga ancha yordam beradi.

Ertagi kartoshka o'suv davrida ikki marta oziqlantiriladi. Birinchi marta (ko'karib chiqqanda) birinchi kultivasiya bilan kultivator-oziqlantirgichlar vositasida 130-150 kilogramm ammoniy selitrasi yoki mochevina, hamda 120-130 kilogramm ammofos (agar ekishda berilmagan bo'lsa) bilan oziqlantiriladi. Ikkinchi oziqlantirish to'la g'unchalashda 230-250 kilogramm ammoniy selitrasi yoki mochevina solish bilan o'tkaziladi. Oziqlantirishda azotli o'g'itlarning

ammoniy sulfat formasini qo'llash mochevina yoki ammoniy selitrasiga nisbatan ancha samarali bo'lib, ertagi kartoshka hosil miqdori va sifatiga sezilarli ta'sir etadi.

Ertagi kartoshkani parvarish qilishda, qator orasini ishlashda, oziqlantirishda T-40, T-28X4 traktorlariga osib ishlatiladigan KON-2,8A, KON-2.8PM, KRN-2,8 markali kultivator oziqlantirgichlardan foydalaniladi.

**Sug'orish.** Ertagi kartoshka ekilgandan unib chiqishgacha yog'ingarchiliklar tufayli namlik yetarli bo'lgani uchun qo'shimcha sug'orishni, talab etmaydi. Unib chiqqandan gullashgacha 1-2 marta sug'oriladi. Gullashdan pishishgacha esa 4-6 marta sug'oriladi va tuproq namligi 75-85 % da saqlanadi. Sug'orish orasidagi davr dastlabki sug'orish vaqtlarida, kun salqin bo'lgani uchun har 8-10 kunda, keyinchalik esa har 6-7 kunda namiqtirib sug'orib turiladi.

Ertagi kartoshkani xo'jaliklarda qo'llanilib kelinayotgan 5 marta 0-1-4 sug'orish sxemasiga nisbatan 8 marta 1-2-5 sxemada sug'orish hosildorlikni 24-27 foizgacha oshiradi (7 -jadval).

Umuman, ertagi kartoshkani o'suv davrida sug'orish rejimi (soni, normasi va sug'orish sxemalari) iqlim va ob-havo sharoitiga, yer osti sizot suvlarining chuqurligiga, tuproq unumdorligiga, ekish muddati va boshqa omillarga bog'liq.

Kartoshka paykallaridagi o'simliklarni suv bilan bir xil tekis ta'minlash ko'p jihatdan sug'orish texnologiyasiga, ya'ni egatlarining uzunligi va chuqurligiga hamda ulardagi suv oqimining tezligiga bog'liq. Tajribalarimizning ko'rsatishicha, dalaning nishabligiga qarab, sug'orish egatlarining uzunligi 90-120 m qilib o'q ariqlar olinishi lozim. Egatlar chuqurligi esa 18-20 santimetr, ulardagi suv oqimi esa 0,10-0,15 litr sekunddan oshmasligi lozim. Shu tartibda sug'orish gektaridan 220 sentnerdan oshirib sifatli ertagi tovar hosil olishni ta'minlaydi (6-jadval). Oxirgi sug'orish hosilni yig'ishtirishga 5-7 kun qolganda to'xtatiladi.

**Ertagi kartoshka Zarafshon navini sug'orish texnologiyasi elementlarining  
hosildorlikka ta'siri (egat chuqurligi-20 sm)**

| №  | Tajriba variantlari            |                               | Hosildorlik, s/ga | Shu jumladan tovar hosil |      | Bir gektardan olinadigan tuganaklar soni, ming dona |          |
|----|--------------------------------|-------------------------------|-------------------|--------------------------|------|-----------------------------------------------------|----------|
|    | Sug'orish egatlari uzunligi, m | Egatlardagi suv oqimi, l/sek. |                   | s/ga                     | %    | jami                                                | Urug'lik |
| 1  | 180                            | 0,30                          | 231,2             | 213,2                    | 92,2 | 597,5                                               | 312,3    |
| 2  | —/—/—                          | 0,20                          | 235,0             | 217,6                    | 92,6 | 631,5                                               | 373,5    |
| 3  | —/—/—                          | 0,15                          | 219,8             | 201,3                    | 91,6 | 611,1                                               | 339,5    |
| 4  | —/—/—                          | 0,10                          | 198,7             | 181,0                    | 91,1 | 570,4                                               | 305,6    |
| 5  | 120                            | 0,30                          | 225,2             | 209,7                    | 93,1 | 631,5                                               | 346,3    |
| 6  | —/—/—                          | 0,20                          | 231,7             | 216,9                    | 93,6 | 638,3                                               | 373,5    |
| 7  | —/—/—                          | 0,15                          | 236,1             | 222,2                    | 94,1 | 672,2                                               | 400,6    |
| 8  | —/—/—                          | 0,10                          | 214,1             | 199,1                    | 93,0 | 631,5                                               | 339,5    |
| 9  | 60                             | 0,30                          | 217,0             | 201,4                    | 92,8 | 658,6                                               | 353,1    |
| 10 | —/—/—                          | 0,20                          | 220,7             | 205,5                    | 93,1 | 679,0                                               | 359,9    |
| 11 | —/—/—                          | 0,15                          | 223,0             | 209,4                    | 93,9 | 692,6                                               | 380,2    |
| 12 | —/—/—                          | 0,10                          | 237,1             | 223,4                    | 94,2 | 706,2                                               | 407,4    |

**Kolorado qo'ng'izi va unga qarshi kurashish.** Keyingi yillarda kartoshka paykallarida bu zararkunandaning keng tarqalganligi barcha xo'jaliklarda yetishtirilgan hosilga sezilarli zarar keltirmoqda.

Unga qarshi kurashda: agrotexnik choralar chidamli navlar (Belorusskiy ranniy, Detskoselskiy, Ogonyok, Zarafshon, Nevskiy, Gatchinskiy, Temp, Bardoshli-3 kabilar) ekish, shudgorni sifatli o'tkazish, o'tmishdosh ekinni to'g'ri tanlash, o'g'itlash, oziqlantirishning ilmiy sistemasiga amal qilish, qator oralarini o'z vaqtida yumshatib turish, sug'orishni kechiktirmaslik, erta ekish (ayniqsa ertagi kartoshka kolorado qo'ng'izi chiqquncha pishib ulguradi), palakni hosil kovlash oldidan o'rib tashlash kabilar kiradi. Kimyoviy usulda esa ambush (0,2 l/ga), simbush (0,2 l/ga), desis (0,3 l/ga), karate (0,6 l/ga), Fyure (0,15-0,2 l/ga), Regent (0,02-0,03 kg/ga), Adonis (0,12-0,15 l/ga), Mospilan (0,020-0,025 kg/ga) va boshqa preparatlar qo'ng'izlar tuproqdan qishlab chiqishi bilanoq 400-500 l ishchi eritma tayyorlanib purkagichlar yordamida sepiladi. Zarur bo'lsa 2-2,5 haftadan so'ng qayta dorilash o'tkaziladi. Hosilni yig'ishtirishga 20-30 kun qolganda kimyoviy preparatlar bilan qarshi kurashish to'xtatiladi.

**Yig'ish.** Pishib yetilgan ertagi kartoshka palaklari sarg'ayadi va tuganaklarida qattiq, sidirilmaydigan po'st hosil bo'ladi. Ertagi kartoshka asosan iyun-iyul oylarida pishib yetiladi. Hosilni erta yoki kech yig'ishtirish uni miqdori va sifatiga salbiy ta'sir etadi.

Kech yig'ishtirib olinganda, tuganaklar so'lib vaznini yo'qotadi, oftob urib chirydi, turli hasharotlar zararlaydi.

Shuning uchun ertagi kartoshkani o'z vaqtida yig'ishtirib olishni tashkil qilish kerak. Shu bilan sug'oriladigan yerdan takror samarali foydalanishga imkon yaratiladi. Kartoshka hosilini yig'ishtirib olish uchun turli elevator tipdagi ikki qatorli kartoshka kovlovchi mashinalar (KTN-1A, KTN-2, KTN-2A va h.k.) qo'llaniladi. Kovlash oldi kartoshkaning sarg'aygan palagi traktorga tirkab ishlatiladigan pichan o'rish mashinalari (KIR-1,5A) yordamida yig'ishtirib olinadi. Kovlab olingan kartoshka hosili tegishli joylarga jo'natilishi lozim.



#### 4. Ertagi kartoshka yetishtirish texnologik xaritasi

| T/r | Ishning                                                                            |                                                                                                                                               | Agregat tarkibi              |                                | Ishning<br>bajari-lish<br>muddati |
|-----|------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------|--------------------------------|-----------------------------------|
|     | Nomi                                                                               | sifat ko’rsatkichlari                                                                                                                         | traktor-avtomashi<br>na tipi | mashina<br>va qurol<br>markasi |                                   |
| 1.  | Dalani shudgor va kartoshka ekishdan oldin paykalchalarga (delyankalarga) ajratish |                                                                                                                                               |                              |                                |                                   |
| 2.  | O’tmishdosh ekin-kuzgi bug’doy somonidan tozalash va sug’orish                     |                                                                                                                                               | -                            | -                              | Noyabr                            |
| 3.  | O’g’itlash                                                                         | 20 t/ga go’ng va<br>N <sub>100</sub> R <sub>80</sub> K <sub>50</sub><br><br>N <sub>200</sub> R <sub>160</sub> K <sub>100</sub><br>me’yorlarda | -                            | -                              | Noyabr                            |
| 4.  | Yer haydash                                                                        | 28-30 sm chuqurlikda                                                                                                                          | DT-75 m                      | PN-4-35                        | Noyabr                            |
| 5.  | Chizellash va boronalash                                                           | 18-20 sm chuqurlikda, kesaksiz                                                                                                                | DT-75 m                      | ChKU-4-1                       | 3-5.03.                           |
| 6.  | Molalash                                                                           | Tekis                                                                                                                                         | DT-75 m                      | VP-8                           | 3-5.03.                           |
| 7.  | Urug’lik tuganaklarni ekishga tayyorlash                                           | Ekishdan 15-20 kun oldin yorug’,<br><br>12-15 °S li xonalarda nishlatish                                                                      | -                            | -                              | 15.02-5.03.                       |
| 8.  | Dalani tajriba sxemasi bo’yicha delyankalarga ajratib, ekish uchun jo’yaklar olish | 70 sm kenglikda, bir xil chuqurlikda                                                                                                          | MTZ-80                       | SN-4B-2                        | 7-9.03.                           |
| 9.  | Ekish                                                                              | Qo’lda 70x30 va 70x20 sm                                                                                                                      | -                            | -                              | 10.03.                            |

|     |                                              |                                                                  |        |          |             |
|-----|----------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|--------|----------|-------------|
|     |                                              | sxemalarda 6-7 sm chuqurlikda                                    |        |          |             |
| 10. | Kultivasiya                                  | 4 marta 10-12 sm chuqurlikda                                     | T-28x4 | KON-2,8A | 04, 05, 06. |
| 11. | Chopiq                                       | Qo'lda                                                           | -      | -        | 04, 05, 06. |
| 12. | Oziqlantirish                                | Azotli o'g'itlar bilan unib chiqish va gullash oldidan           | T-28x4 | KON-2,8A | 04, 05.     |
| 13. | Sug'orish                                    | 1-1-5 (6) sxemada gektariga 500-700 m <sup>3</sup> suv me'yorida | -      | -        | 04, 05, 06. |
| 14. | Kolorado qo'ng'iziga qarshi kurashish        | Mospilan 20-25 gramm 400-500 l suvda                             | T-28x4 | OVX-28   | 05.         |
| 15. | Hosilni yig'ish                              | Qo'lda palak sarg'ayib, pastgi barglar qurigach                  | -      | -        | 01.07.      |
| 16. | Urug'lik tuganaklarni saralash, chiniqtirish | Yorug', soya joyda 12-15 kun davomida saqlash                    | -      | -        | 1-15.07     |

## **5. MAMLAKATNI MODERINIZASIYA QILISH, KUCHLI FUQORALIK JAMIYATNI BARPO ETISHNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA USTIVOR VAZIFALARI**

Prezidentimiz Islom Karimov parlament qo'shma majlisini ma'ruzasida parlament tomonidan amalga oshirilgan, erishilgan yutuqlarni qayd etish bilan birga ikki palatali parlament faoliyatidagi ayrim kamchiliklar va nuqsonlar foydalanilmay qolgan imkoniyatlar haqida ham o'z fikr-muloxazalarini bayon etdi. Albatta bu oliy majlisning kelgusi 5 yillik faoliyatining asosiy vazifalari va ustivor yo'nalishlari belgilab olinayotgan bir sharoitda muhim ahamiyatga ega. Kamchilik va nuqsonlar foydalanilmay qolgan imkoniyatlar hamda vazifa va ustivor yo'nalishlar quydagilardan iborat qilib ko'rsatildi:

**Birinchidan,** qonunchilik palatasi faoliyatidagi eng katta kamchiliklardan biri uning qonun ijodkorligi ishlari bo'yicha chuqur va har tomonlama puxta ishlab chiqilgan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy islohatlarni o'z ichiga olgan, uzoq istiqbolga mo'ljallangan o'z dasturlariga ega emasligida ko'rinadi. Bu ko'pincha qonunlarning aniq bir tizimga rivoya qiladigan holda ularning qonunchilik tashabbusi xuquqiga ega bo'lgan subyektlar tomonidan kiritilishga qarab qabul qilishishiga olib kelayotgan sabablardan biridir.

**Ikkinchidan,** deputatlar kornusinini sustkashligi tufayli iqtisodiy, siyosiy gumanitar sohalarda jadal rivojlanayotgan islohatlarni amalga oshirish uchun xayotiy zarur bo'lgan qonunlar kiritilmagan, tashabbus bilan chiqmaganligi. Keyingi 5 yil ichida Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan 297 ta qonun loyihasidan 44 tasi deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan xolos.

Ayni paytda 42 ta qonun loyihasi bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etilgan. 160 dan ziyod loyihasi esa mamalakat xukumati (Vazirlar Maxkamasi) tomonidankritilgan bo'lib, ularning aksariyati

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va qarorlarining ijrosini maunosabati bilan taqdim etilgan.

**Uchinchi**dan, qabul qilinayotgan qonunlarning sifatini yaxshilash talab etiladi. Ularning ko'pchilik amaldagi qonun xujjatlariga qushimchalar kiritishiga qaratilgan bo'lib, kodifikasiyalash tavsiflari darajada tizimlashuv mazmuniga ega emas. Qabul qilinadigan qonun amaldagi qonun xo'jjatlaridan farq qiladigan tafovutlarga yo'l quyilgan boshqa xujjatlarga xavola qilish xolatlari ko'p. Asosiy kamchiliklar shundaki qabul qilinadigan qonunlarda aksariyat o'rinlarda ana shu qonun xo'jjatlaridan xayotiy tdbiq etilishini ta'minlaydigan prosessual mexanizmlarning mavjudmasligida ko'zga tashlanadi. Bu esa o'z-o'zini ushbu xujjatlarning qo'llanilishi sezilarli darajada qiyinlashtiradi. Qonunlarning ijro etilmasligiga xuquqiy ishimiz ya'ni har qanday xuquqiy normalarini inkor qilishishiga xuquqini bo'lgan amaliyotni samaradorligining pasayishiga olib keladi.

**To'rtinchi**dan, qonunda ko'zda tutilgan deputatlik nazorati xuquqiy qo'llash amaliyotini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatish shakllaridan sust foydalanilmoqda. Qonunchilik palatasi o'tgan davr faoliyatida atigi bir nechta xususan inovavasion texnologiyalarni ishlab chiqishga joriy etish, kimyo sanoati korxonalari qurilishini jadallashtirish va yangi tkrdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq masalalar bo'yicha parlament so'rovi amalga oshirgan, bu yetarli emas, albatta.

**Beshinchi**dan, parlament deputatlarning o'z saylov okrugidan tizimli faoliyatini sezilarli darajada yaxshilash talab etiladi. Bunday tadbir deputatga saylovchilar o'z faoliyatlarida qanday muammolarga duch kelayotgani ularni xal etish zaruratini aniqlash uchun imkon bergan bshlar edi. "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatining saylov okrugidagi faoliyatini tashkil etish tartibi" palata tomonidan to'rtinchi yilidagina , 2008 yilning may oyiga kelib ishlab chiqilgan va qabul qilingan.

**Oltinchidan,** quyi va yuqori palatalar amaliy faoliyatining dastlabki davrida har ikki tomonning o'z ambisiyalarini namoyon etishi bilan bog'liq bo'lgan jiddiy muammolar kuzatildi. Bunday ziddiyatlar qonunlarni qabul qilish muddati va sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Umuman, Prezidentimiz mamlakatimizdagi oliy qonun chiqaruvchi organ Oliy Majlis tomonidan amalga oshiriladigan qonun ijodkorligi jarayonning mustaqil tarkibiy qismi bo'lgan har qaysi palata faoliyati ta'minlash jaroayoni qiyinchilik bilan yo'lga quyildi deb ta'kidlaydi.

Senat va uning a'zolari qonunchilik tashabbusi huquqiga ega emas. Senat bu vakillik organi va uning kshho'pchilik qismi xalq deputatlari viloyat. Tuman va shahar kengashlarining deputatlari sifatida mamlakatimiz oliy qonun chiqaruvchi organida ana mahaliy kengashlarning vakolatli vakili hisoblanadi. Shu boisdan ham senatorlar o'z faoliyatida. Qonunlarni muhokama etish va qarorlar qabul qilindi. Birinchi navbatda, umumdavlat manfaatlaridan kelib chiqib, bu qonunlar o'zlari vakl bo'lgan va mintaqalar manfaatlarini nuqtai nazaridan ko'rib chiqishlari to'liq qonuniy asosga ega.

Shuning uchun ham Senat tomonidan ayrim qaytarilgan qonun loyihalari mohiyati, ma'no- mazmuni bo'yicha quyi va yuqori palatalar kelishuv komissiyalari doirasida vujudga keladigan baxs- munozaralar demokratik parlament ishini tabiiy sog'lom shakli sifatida qaramoq lozim.

Ayniqsa yangidan saylangan parlament sifat jihatdan yangicha siyosiy ijtimoiy sharoitda faoliyat yuritish ayon bo'ladi. Bugungi kunda davlat va jamiyat qurilish sohasida mamlakatimiz oldida ulkan vazifalar turibdi. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi davom etayotgan og'ir bir sharoitda iqtisodiyotimizning yanada barqaror rivojlanishini ta'minlash uni diversifikasiya va modernizasiya qilish, ishlab chiqarishni qayta jixozlash kabi ishlarni izchil davom ettirish zarur.

Mintaqamizda va butun dunyoda yuzaga kelayotgan murakkab geosiyosiy sharoitda mamlakatimiz xavfsizligi, barqarorligi, tinch va osoyishta hayotini saqlash kabi vazifalarni bajarish jondan aziz farzandlarimizning bugungi va ertangi

kuni ana shu masalalarning muvaffaqiyatli hal etilishiga ham bog'liqdir. Qushni Afg'oniston 30 yildan buyon davom etayotgan qurolli mojaraning xavf- xatari, mintaqamizdagi tinchlik va barqarorlikka nisbatan tahdidi ham saqlanib qolmoqda. Shu boisdan Prezidentimiz Islom Karimov o'z ma'ruzasida bu holatni, mojarani faqat harbiy yul bilan yechib bo'lmasligi haqidagi fikrni birinchi o'ringa qo'ydi. Mojarani siyosiy yo'l bilan hal etish maqsadida "6-2" muloqat guruhini "6-3" guruhiga aylantirish haqidagi taklifi ilgari surilgan edi. Mazkur garuhga Afg'onistonga chegaradosholti mamlakat:

Eron Islom Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Pokiston Islom Respublikasi, Tojikiston, Turkmaniston, O'zbekiston + AQSh va Rossiya davlatlari kirgan edi. (1997-2001 yillar). "6-2" muloqat guruhini "6-3" muloqat guruhiga aylantirishi, ya'ni unga NATO vakolatxonasining ishtirokini ta'minlash masalasini 2008 yilning 3 aprelida Buxarestda NATO STAN (Yevroatlantika hamkorlik kengashi) 15-16 iyunida Yekaterinburg shahrida ShHT davlat rahbarlari kengashlarida bir necha bor. Prezidentimiz tomonidan ko'tarilgan edi. Lekin ahvol ijobiy tomonga o'zgarish o'rniga, aksincha Afg'onistonda keskinlik kuchayib borayotganligini yurtboshimiz yana bir bor ta'kidlab o'tdi. Dunyodagi ko'pgina davlatlar afg'on muammosini faqat harbiy yo'l bilan hal etish mumkin emasligini har tomonlama anglab amaliy xulosalarga kelmoqda.

Bugungi kunda dunyodagi ko'pgina davlatlar tomonidan Afg'onistonga amaliy yordam ko'rsatilmoqda. O'zbekiston ham hozirgi vaqtda yaqin qo'shni davlat sifatida Afg'onistonga katta yordam bermoqda. Jumladan 2010 yilda O'zbekiston Afg'onistonga yetkazib borayotgan elektr energiyasi miqdori o'tgan yillarga nisbatan olti barobar oshirildi. Shu kunlarda O'zbekistonning quruvchi va mataxasislari tomonidan "Termiz- Xayraton-Mozori Sharif" temir yo'lini qurish ishlari boshlanib, u yil oxiriga qadar yakuniga yetkazildi.

Prezidentimiz umuman parlamentning bugungi kunda mintaqamizda tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash masalasida ma'suliyatli katta ekanligiga diqqatni qaratdi. Prezident Islom Karimov yana bir bor parlamentimizda yuksak

tashabbuskorlikni qonun ijodkorligi faoliyati samaradorligini oshirish, har bir deputat va siyosiy partiyadan esa avvalo ular saylov davrida o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni nuxta va vijdonli talab darajasida ado etilishiga asosiy e'tiborni qaratdi. Qonunchilik palatasida ham Senatda ham oldimizda turgan ishlarning amaliy dasturini tayyorlash jarayonida ana shu vazifalarning barchasi hisobga olinishini oxirigacha nuxta ishlab chiqilishiga ishonch bildirdi. Shuningdek yurtboshimiz hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan quyidagi masalalar doimiy e'tiborimiz markazida turishiga asosiy diqqat qaratildi.

Agar biz iqtisodiy va ijtimoiy sohani isloh etish jarayonlarini ijtimoiy-siyosiy va sud-huquq tizimini muntazam yangilab borish jarayonlari bilan o'zaro aniq va chuqur uzviy bog'liq holda amalga oshirishni ta'minlamas ekanmiz, mamlakatimizni modernizasiya qilish borasida belgilab olgan yuksak marralarimizga erisha olmaymiz. Bunda : 1) hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyatiga bo'linish prinsipiga rioya qilgan holda parlament hokimiyatning rolini ko'chaytirish kerak: 2) ko'ppartiyaviylik tizimini rivojlantirish, siyosiy partiyalar faolligini keskin oshirish, ular o'rtasidagi raqobat asosidagi kurashni kuchaytirish lozim. Har bir partiya parlamentda g'oya va dasturlar birlashuvini yo'lga qo'yish darkor. Qonunchilik palatasidagi turli siyosiy fraksiyalarning o'rtasidagi raqobat qanchalik kuchli bo'lsa, partiyaning g'oyalari dasturiy vazifalari hayotga muvaffaqiyatli tatbiq etiladi. Bu jarayon qabul qilinadigan qonunlarning sifatini oshiradi.

Parlamentimiz va mahalliy vakillik organlari- Kengashlar oldida turgan ikkinchi g'oyat muhim vazifa qabul qilingan qonunlarni ijro etuvchi xokimiyat, ya'ni xukumat tomonidan markazda xokimliklar tomonidan esa joylarda qanday bajarilayotgani ustida qat'iy parlament nazoratini deputatlik nazoratini o'rnatishdan iborat. Bunda 1) Qonunchilik palatasi va Senatda qonunlar ijrosi davlat dasturlari bajarilishi yuzasidan axborot va hisobotlari kamdan-kam muhokama qilinadi: 2) Parlament bunday hisobotlarni eshitish ya'ni tanishuv xususiyatiga ega: 3) ko'rilayotgan masala bo'yicha komissiya pozitsiyasi aniq

belgilab olinmagan, puxta ishlab chiqilgan dastur va hujjatlar qabul qilinmagan: 4) qonun chiqaruvchi xokimyat nazorat vakolatlarini amalga oshirish qonunda ko'zda tutilgan xuquqiy norma va mexanizmlardan markaz va joylarda keng foydalanish choralarini ko'rish kerak: 5) davlat rahbarlari o'ziga ishonib topshirilgan qonun hujjatlari ijrosini ta'min etishlari darkor: 6) ijro xokimiyati qonunlarning qanday bajarilishi bo'yicha hisobotlarini tinglab borish amaliyotini kengaytirish zarur: 7) parlament nazoratini amalga oshirishda davlat tuzilmalarning iqtisodiy sohaga asossiz aralashuvini kamaytirish kerak. Parlament nazarotining parlament so'rovi, parlament xisobotini eshitish kabi shakllaridan keng foydalanish lozim: 8) bu vazifalarning bajarilishi bo'yicha javobgarlik barcha bo'g'indagi davlat xokimiyati idoralari rahbarlari va prokuratura zimmasiga yuklatilishi lozim: 9) parlament nazoratini kuchaytirishda ommaviy axborot vositalari keng jamoatchilik ishtirokini ta'minlamoq zarur.

Parlamentning mamlakatimizda kuchli fuqoralik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan demokratik yangilanishlar, liberal islohatlar targ'ibotchisiga aylanishiga erishish eng asosiy vazifa bo'lmog'i zarur. Bunda: 1) fuqoralarning mamlakat boshqaruvidagi rolini oshirib borishni asosiy o'ringa quyadigan "Kuchli davlatdan kuchli fuqoralik jamiyati sari" dasturini amalga oshirishni faollashtirish darkor: 2) fuqoralik jamiyati institutlarning rivojlantirishni talab etadi: 3) siyosiy partiyalarning markazda va joylarda ijro etuvchi xokimyat idoralari shakllantirishda faol ta'sirini kuchaytirishda tashkiliy-xuquqiy shart-sharoitlardan to'la foydalanish darkor: 4) mahalliy kengashlardagi partiyalar guruhlar faoliyatini va uning ta'sirini oshirish lozim: 5) qonunchilik faoliyatining muhim yo'nalishi bo'lgan fuqoralik jamiyati institutlari nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatining me'yoriy – xuquqiy bazasini rivojlantirish kerak. Bu institut va tashkilotlar qarorlar qabul qilish o'zlari mansub bo'lgan ijtimoiy qatlam, tuzilmalar manfaatini ximoya qilish tizimida munosib o'ringa ega bo'lsin.

Bugungi kunda ekologik yo'nalishdagi 100 dan ortiq nodavlat, notijorat tashkilotni birlashtirgan O'zbekiston Ekologik xarakatidan O'zbekiston

Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar oldida katta va ma'suliyatli vazifalar turibdi. Bu vazifalarni bajarish quyidagilarni taqozo etadi: 1) atrof – muhitni muhofaza qilish sohasiga oid qonunchilikni yanada rivojlantirish: 2) markaz va joylarda davlat xokimiyati idoralari shu sohaga oid qabul qilingan xujjatlarning so'zsiz bajarilishini ta'minlashda ko'maklashish: 3) O'zbekiston Ekologik xarakati yuksak deputatlik manbaridan turib, atrof-muhitning yanada samarilaroq muhofaza qilish: 4) aholini ekologik xavf hamda tajavuzlardan ximoyalash ulkan imkoniyatlarni qo'lga kiritish.

Fuqoralik jamiyati institutlari jumladan fuqoralarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining jamiyat va davlat qurilishi tizimidagi xuquq hamda vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish masalasi ustivor yo'nalishga aylanishi zarur. Bu ustivor yo'nalishda samarali natijalarga erishish quyidagi vazifalarini amalga oshirish lozim: 1) mahalla tizimining ta'siri va ahamiyatini yanada oshirish: 2) yoshlar ma'naviy - axloqiy tarbiyasi bilan bog'liq masalalarni yechish, ijtimoiy sohaning samarali faoliyat eritishini ta'minlash joylarda jamoat tartibi va xavfsizligini saqlashni kuchaytirish: 3) mahalla faoliyatining xuquqiy bazasini takomillashtirish uning samarali faoliyat yuritish mexanizmi va vakolatlarini kengaytirish: 4) mahallalarda aholini ijtimoiy-qo'llab quvvatlash, xususiy tadbirkorlik va oilaviy biznesni rivojlantirish markaziga aylantirish yo'lida boshlagan ishlarimizni izchil davom ettirib yangi bosqichga ko'tarish: 5) boshqaruv idoralari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini o'rnatishda mahalla vazifalarini kengaytirish: 6) davlat ijtimoiy dasturlarini xayotga tadbiiq etishda amalga oshirilayotgan ishlardan jamoatchilikni keng xabardor qilish maqsadida davlat organlarining o'zini-o'zi boshqarish idoralari bilan mustaxkam xamkorligini ta'minlash: 7) oqsoqollar va ularning maslahatchisi etib munosib nomzodlar saylanishini ta'minlaydigan fuqoralar yig'ini raislari (oqsoqollar) va ularning maslaxatchilarini saylash tizimini yanada takomillashtirish:

Bugungi xayotning oldimizga fuqoralik jamiyati institutlari tizimida ommaviy axborot vositalarning o'zni va rolini yanada musthkamlash vazifasini qat'iy qilib qo'ymoqda. Ommaviy axborot vositalarini yanada erkinlashtirish nodavlat matbuot nashrlari, radio televideniya faoliyatini jonlantirish ularning Internet global tarmog'iga kirish imkoniyatlarini kengaytirish olib borilayotgan islohatlar siyosatini ochiqligi va oshkoraligini ta'minlashga kuchli fuqoralik jamiyatining izchil shakllanishiga madad berishi darkor. Bunda 1) milliy matbuotimizning sifati.

## **6. ISLOM KARIMOVNING «JAHON MOLIIYAVIIY-IQTISODIIY INQIROZI, O'ZBEKISTON SHAROITIDA UNI BARTARAF ETISHNING YO'LLARI VA CHORALARI» KITOBII VA UNDA KELIB CHIQAIDIGAN VAZIFALAR.**

